2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 269 (1058), 2023-yil 27-dekabr, chorshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI MDHNING NORASMIY SAMMITIDA ISHTIROK ETDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 26-dekabr kuni Sankt-Peterburg shahrida MDHga a’zo davlatlar rahbarlarining norasmiy uchrashuvida ishtirok etdi.

Tadbirda Rossiya Prezidenti Vladimir Putin, Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev, Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iziston Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov va Armaniston Bosh vaziri Nikol Pashinyan qatnashdi.

Uchrashuvda 2023-yilgi ko‘p tomonlama hamkorlikning asosiy yakunlari sarhisob qilindi va kelgusi yilga mo‘ljallangan ustuvor vazifalar ko‘rib chiqildi. MDH doirasida ko‘p qirrali munosabatlarni rivojlantirish istiqbollari yuzasidan fikr almashildi, mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar muhokama qilindi.

Ta’kidlash joizki, so‘nggi yillarda mamlakatimiz Hamdo‘stlikda faol ishtirok etmoqda.

O‘zbekiston 20 dan ortiq tarmoq bo‘yicha hamkorlik organlariga hamda ustuvor soha va tarmoqlar bo‘yicha 24 ta muhim bitimga qo‘shildi.

MDH mamlakatlari kompaniyalari bilan sanoat kooperatsiyasi bo‘yicha loyihalar portfeli 30 milliard dollardan oshdi va deyarli barcha tarmoqlarni qamrab olgan.

Davlatimiz rahbari MDH doirasidagi amaliy hamkorlikni tubdan kengaytirish va hamkorlikning amaldagi institutsional mexanizmlari samaradorligini oshirish zarurligini alohida qayd etdi.

Shu kuni Sankt-Peterburg shahridagi MDH norasmiy sammiti doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Joriy yilning 5-7-oktabr kunlari Rossiyaga amalga oshirilgan oliy darajali tashrif yakunida erishilgan kelishuvlarni ro‘yobga chiqarish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Tovar ayirboshlashning o‘sish sur’atini saqlab qolish hamda istiqbolli kooperatsiya loyihalarini ilgari surish maqsadida yaqin idoralararo muvofiqlashuv va amaliy hamkorlikni, shu jumladan, ikki mamlakat hududlari darajasida ta’minlash muhimligi qayd etildi.

Mintaqaviy kun tartibi yuzasidan ham fikr almashildi.

MDH norasmiy sammitining madaniy tadbirlar dasturi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Sankt-Peterburg shahrining saroy-bog‘ majmualari bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari Rossiya, Ozarbayjon, Armaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston yetakchilari bilan birgalikda “Pavlovsk”, “Sarskoye selo” va “Petergof” muzey-qo‘riqxonalariga tashrif buyurdi.

XVIII-XIX asrlarda barpo etilgan ushbu tarixiy obidalar UNESCO Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan, me’morchilik va bog‘chilik san’ati durdonalari sifatida tan olingan.

Tanishuv chog‘ida davlat rahbarlariga saroylar tarixi, ularning ichki bezagi va badiiy to‘plamlari to‘g‘risida batafsil so‘zlab berildi. Oliy martabali mehmonlar e’tiboriga musiqa va xalq og‘zaki ijodi jamoalarining chiqishlari havola etildi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning amaliy tashrifi yakunlandi.

O‘zA

BIZNING SUHBAT

RENESSANS ZABTI

MA’NAVIY-AQLIY HODISALARDAN QUVVAT OLADI

“Tarjimon ham, yozuvchi, shoir ham hech qachon did-farosatda zamondosh o‘quvchiga moslashib, tenglashib ijod qilolmaydi. Ijodkor hamma vaqt did-farosat, vijdonlilikda zamondan, zamondoshlaridan ancha oldinroqda yuradi. Bo‘yi ommaning bo‘yiga baravar, qilig‘i ommaning qilig‘idan farq qilmaydigan, o‘z fikriga ega bo‘lmagan kishi qanday qilib yozuvchi, shoir, san’atkor, tanqidchi, tarjimon bo‘lishi mumkin? Yo‘q, ijodkor hamma vaqt chuqurroq o‘ylaydi, uzoqroqni ko‘radi, umummanfaatni o‘tkirroq, teranroq tushunadi. Shuning barobarida u ijodkor deb ataladi”.

O‘zbekiston Qahramoni Ibrohim G‘AFUROVning ushbu so‘zlari bu galgi diydorlashuv uchun o‘ziga xos muqaddima bo‘ldi. Adabiyotshunos olimizning nihoyasiga yetayotgan 2023-yil voqeliklari, o‘zgarishlari, fikr to‘lqinlari va dolg‘alari haqidagi xulosalari sizni ham befarq qoldirmasligiga ishonamiz.

Davomi 5-betda

BUYUK O‘ZBEK YO‘LI

KUCHLI MA’NAVIYAT – JAMIYATNI POKLANTIRUVCHI YOG‘DU

Bugun barchamiz — katta-yu kichik, ayol-u erkak Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining 22-dekabr kuni davlatimiz rahbari ishtirokida o‘tkazilgan kengaytirilgan yig‘ilishi taassurotlari bilan yashayapmiz. Katta-kichik davralar, odamlar orasida yig‘ilishda ilgari surilgan fikr va g‘oyalar, mulohazalar, asosli xulosalar muhokama qilinmoqda. Quvonarlisi, butun jamiyat unda ko‘tarilgan masalalarning nechog‘liq ahamiyatli ekanini, barchamiz kelgusi avlod taqdiri uchun mas’ulligimizni bot-bot ta’kidlamoqda.

Yig‘ilishda ko‘tarilgan masala jamiyatning barcha sohalari — xoh u iqtisodiyot, xoh siyosat, xoh yoshlar tarbiyasi bo‘lsin, mamlakat va millat taqdiri uchun o‘ta muhim ma’naviyat, ma’rifat, tarbiya masalalariga daxldor bo‘lgani uchun ham katta ijtimoiy qiziqish uyg‘otdi.

Davlatimiz rahbarining ma’ruzasini uning mamlakat va millat taqdiri uchun jon kuydirish, yuksak mas’ullik namunasi sifatida baholash mumkin. Buni esa bugun butun jamiyatni, eng avvalo, ziyolilarimizni uyg‘otishga, ularning bundan 7 yil avval boshlangan tub islohotlarga daxldorlik darajasini yanada kuchaytirishga da’vat tarzda tushunish to‘g‘ri bo‘lardi.

Davomi 3-betda

DUNYO E’TIROFI

O‘ZBEKISTON TASHABBUSI BILAN QABUL QILINGAN REZOLYUTSIYA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINI YAGONA MAQSAD YO‘LIDA BIRLASHTIRADI

O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan bir ovozdan qabul qilingan BMT Bosh Assambleyasining “Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo‘lida mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash” rezolyutsiyasi ekspertlar hamjamiyati va mazkur tuzilma ixtisoslashgan tashkilotlari vakillari tomonidan yuqori baholanmoqda.

Rezolyutsiya qabul qilingandan so‘ng BMT Axborot xizmati ushbu global hujjatning mazmun-mohiyati va ahamiyatiga bag‘ishlangan tahliliy maqolani e’lon qildi. BMTning yuqori martabali vakillari ushbu muhim hujjat Bosh Assambleya tomonidan muvaffaqiyatli qabul qilingani munosabati bilan samimiy fikrlarini bildirdi.

Davomi 2-betda

BUGUNNING GAPI

AQSH BOZORIGA “KIRISH CHIPTASI”

uni O‘zbekiston ishlab chiqaruvchilari Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib qo‘lga kiritdi

Bugun jahon bozoriga kirish oson emas. Bozor tartib-qoidalari-yu xaridorlar talabi ancha o‘sgan. Did baland. Quvonarlisi, shunday sharoitda o‘zbekistonlik ishlab chiqaruvchilar xalqaro bozorlarni zabt etishning uddasidan chiqmoqda. Gap shundaki, Prezidentimizning 2023-yil 10-yanvardagi “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida joriy yilda “O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi zimmasiga ushbu yo‘nalishdagi eksport hajmini 2,6 barobar oshirish vazifasi qo‘yilgan edi. Shu bois, tizimda “Made in Uzbekistan” brendi ostidagi mahsulotlarni tashqi bozorlarga, jumladan, AQSH bozoriga olib kirish bo‘yicha tizimli ishlar olib borildi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, 2022-yilda Osiyodan AQSHga qiymati 5,5 milliard dollardan ziyod gazlama va mato eksport qilingan. Bu O‘zbekiston to‘qimachilik korxonalari uchun ham keng imkoniyat yaratdi. WRAP (Worldwide Responsible Accredited Production) xalqaro ijtimoiy sertifikati esa ushbu bozorga “kirish chiptasi”dir.

Nima uchun aksariyat to‘qimachilik korxonalari mazkur sertifikatni qo‘lga kiritishga intiladi? Buning birinchi sababi, okeanorti mamlakatining katta ehtiyoji. Ya’ni AQSH bozori bir yilda 100 milliard dollarlik to‘qimachilik mahsulotlarini import qiladi. Bu butun Yevropa Ittifoqi davlatlari ehtiyojidan ham ko‘p. Qolaversa, eng nufuzli va taniqli savdo brendlari ham shu yerda joylashgan.

Davomi 4-betda

DUNYO E’TIROFI

O‘ZBEKISTON TASHABBUSI BILAN QABUL QILINGAN REZOLYUTSIYA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINI YAGONA MAQSAD YO‘LIDA BIRLASHTIRADI

Boshlanishi 1-betda

Li SZYUNXUA,
BMT Bosh kotibining iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari:

— O‘zbekiston Prezidenti va xalqini BMT Bosh Assambleyasi tomonidan “Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo‘lida mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash” rezolyutsiyasi bir ovozdan qabul qilingani bilan samimiy tabriklayman. Ushbu muhim rezolyutsiya ekologik muammolarga, jumladan, muzliklarni himoya qilish, yerlarning degradatsiyasiga qarshi kurashish, suv resurslaridan barqaror foydalanish va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan asosiy masalalarni ilgari suradi.

Rezolyutsiya barqaror rivojlanishga kompleks yondashuvni rag‘batlantiradi va umummilliy muammolarni hal qilishda kuchli vosita sifatida xizmat qiladi.

O‘zbekistonning ushbu tashabbusi odamlar birlashsa, amaliy harakatlar olib borish, barqaror, adolatli va xavfsiz dunyoni barpo etishda nimalarga erishish mumkinligi namunasidir. Rezolyutsiya Markaziy Osiyo davlatlarining Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishi hamda xalqaro hamjamiyat ko‘magida jamoaviy majburiyatlarini kuchaytiradi.

Bugun biz O‘zbekiston Prezidenti va xalqi tashabbusini tantanali ravishda nishonlar ekanmiz, mamlakatingizning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lidagi qat’iy intilishini samimiy qutlaymiz. BMT tizimi O‘zbekistonning bu boradagi sa’y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlashda davom etadi.

Keling, barcha uchun barqaror va adolatli kelajakni barpo etish yo‘lida umumiy sa’y-harakatlarimizni birlashtirib, hamjihatlikda harakat qilaylik.

Verner OBERMAYER,
Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining Nyu-Yorkdagi vakolatxonasi direktori:

— O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga xalqaro hamjamiyat e’tiborini yana bir bor Markaziy Osiyodagi ekologik muammolarga qaratgani uchun samimiy minnatdorlik bildiraman. Shuningdek, O‘zbekiston xalqini o‘tgan haftada BMT Bosh Assambleyasining keng qamrovli va aniq harakatlarga yo‘naltirilgan rezolyutsiyasi muvaffaqiyatli qabul qilingani bilan chin yurakdan tabriklayman.

Dunyo aholisining deyarli yarmi iqlim o‘zgarishining salbiy ta’siriga o‘ta zaif bo‘lgan hududlarda istiqomat qilmoqda. Iqlim o‘zgarishi tufayli haroratning ko‘tarilishi cho‘llanish va qurg‘oqchilik darajasini oshirmoqda. So‘nggi yigirma yil ichida 65 yoshdan oshgan odamlar orasida issiqlik tufayli o‘lim darajasi 70 foizga yetdi.

Suv tanqisligi dunyo aholisining 40 foiziga ta’sir qilmoqda. 2030-yilga borib, 230 milliondan ortiq kishi ushbu tahdid ostida qolishi va ular boshqa hududlarga ko‘chib ketishga majbur bo‘lishi mumkin. Issiqlik, yuqumli kasalliklar tarqalishi, suv tanqisligining kuchayishi va oziq-ovqat xavfsizligiga putur yetkazayotgani sababli biz odamlar sog‘lig‘ini saqlashni ta’minlay olmaymiz. Bu, ayniqsa, harorat global o‘rtacha ko‘rsatkichdan ikki barobar ko‘tarilayotgan Markaziy Osiyoda juda dolzarbdir.

Bosh Assambleya tomonidan qabul qilingan mazkur rezolyutsiyada Markaziy Osiyo, jumladan, Orolbo‘yi mintaqasidagi ekologik muammolarni hal etish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ko‘maklashish va iqlim o‘zgarishiga moslashish choralarini ko‘rish bo‘yicha mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish zarurligi alohida qayd etilgan.

Men Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ushbu muhim tashabbuslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashini tasdiqlayman.

Filipp MARTINET,
Fransiyaning BMTdagi doimiy vakolatxonasi siyosiy masalalar bo‘yicha katta maslahatchisi:

— O‘zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining yangi rezolyutsiyasi qabul qilinganidan chuqur taassurot va ilhom olganimni ta’kidlashim kerak. Markaziy Osiyo yuzlashayotgan va duch keladigan ekologik muammolar yaqin mintaqaviy hamkorlikni taqozo etmoqda. Biz bunday hamkorlikni rag‘batlantiramiz va mintaqadagi besh davlat o‘z sa’y-harakatlarida birlashgani hamda bu yo‘nalishdagi aloqalarni rivojlantirish maqsadida turli tadbir va forumlar o‘tkazish niyatida ekanidan juda mamnunmiz.

Rezolyutsiyadagi o‘zaro birdamlik va muhim tashabbuslar uchun O‘zbekistonga yana bir bor samimiy minnatdorlik bildiraman. Biz BMTning iqlim o‘zgarishi bo‘yicha navbatdagi konferensiyalarigacha ushbu yo‘nalishdagi majburiyatlarni yanada kuchaytirishga chaqiramiz.

“DUNYO” AA
Nyu-York

HUDUDLAR HAYOTI

“Chirkay” mahalla fuqarolar yig‘ini Furqat tumani markaziga yaqin hududda joylashgan. Lekin muammolari eski. Pastqam uy-joy, tor, o‘nqir-cho‘nqir ko‘chalar, dehqonchilik va mol-qo‘y boqib kun ko‘rayotgan sodda, samimiy odamlar hayot tarzi maqtangulik emasdi. Ishlab chiqarish tarmoqlari yo‘qligi xotin-qizlar, yoshlar o‘rtasida ishsizlik ko‘payishiga sabab bo‘lgan.

TADBIRKORLIK MARKAZIGA AYLANAYOTGAN MAHALLA

Olis va chekka qishloqlarda yashayotgan aholi uchun munosib shart-sharoitlar yaratib berish borasidagi “Obod xonadon — obod ko‘cha — obod mahalla” mezonlari ko‘hna maskan hayot tarzini o‘zgartirdi. Aholi xonadonlari, ko‘chalarning me’moriy qiyofasi yangilandi, ko‘makka muhtoj oilalar har jihatdan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlandi. Ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish, mahallalarni tadbirkorlik markazlariga aylantirish, ichimlik suvi keltirish, elektr tarmoqlarini yangilash, ko‘chalarni asfaltlash, maktab, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini ta’mirlash, aholi tomorqalaridan unumli foydalanishi uchun suv ta’minotini yo‘lga qo‘yish kabi turfa muammolarni bartaraf etish uchun kerakli mablag‘lar ajratildi.

— Mahallamizdagi 635 ta xonadonning holatini obdan o‘rganib chiqib, 4 toifaga ajratib oldik, — deydi “Chirkay” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Zohirjon Karimov. — Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Shu kunga qadar Tong guli, Ravnaq, Namuna-1 ko‘chalaridagi 11,2 kilometrga yaqin ichki yo‘lga asfalt, 4,9 kilometriga shag‘al yotqizildi. Yosh avlod, Yosh avlod-2, Tong guli, Namuna ko‘chalaridagi mavjud ichimlik suvi qudug‘i va suv minorasi ta’mirlandi, 3 ta yangi suv minorasi o‘rnatilib, har bir xonadon toza ichimlik suvi bilan ta’minlandi. Eskirgan simyog‘ochlar o‘rniga 264 ta yangisi o‘rnatildi, kabellar yangilandi. Namuna ko‘chasidagi transformator ta’mirlandi, 4 ta yangi transformator o‘rnatildi, elektr energiyasi ta’minoti yaxshilandi.

Aholi muammolari xonadonbay o‘rganilib, ishsizligi aniqlangan 78 fuqaroning 25 nafariga subsidiya asosida tikuv mashinasi, 22 nafariga mehnat qurollari olib berildi, 17 nafariga chorvachilik, tomorqachilik yo‘nalishlarida tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun imtiyozli kreditlar ajratildi, 15 nafari haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb etildi.

— Tikuvchilik malakasiga egaman. Ammo uy yumushlari, farzand tarbiyasidan ortib, boshqa joyga borib ishlashga imkoniyatim yo‘q edi. Shuning uchun ishsiz ayol sifatida “Ayollar daftari”ga kiritilgandim, — deydi Yoqutxon Qodirova. — Subsidiya asosida tikuv mashinasi olishni taklif qilishdi, rozi bo‘ldim. Endi uy sharoitida oilaviy tadbirkorlik qilib, daromad topish imkoniyatiga ega bo‘ldim. Tikuvchilikka qiziqqan qo‘ni-qo‘shnilarimga ham hunar o‘rgatyapman.

O‘rinbuvi Turdimatova mahalladagi ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalardan. Qaramog‘idagi o‘g‘li va kelini nogiron. Xonadonni homiylar ko‘magida ta’mirlash boshlangandi. Qisqa vaqtda uch xonali eski uy tomi shifer qilindi, ayvon yashash xonasiga aylantirilib, oshxona, tandirxona qurildi.

— Biz kabi ehtiyojmand oilalarga berilayotgan e’tibor va g‘amxo‘rliklardan cheksiz minnatdormiz, — deydi shu mahallada yashovchi Zarifa Qosimova. — Boquvchimiz yo‘q, voyaga yetmagan ikki farzandim bor. Uyimiz ta’mirtalab edi. Yaxshilar ko‘magi, qo‘llab-quvvatlashi tufayli ikki xonali zamonaviy uy qurib, kerakli sharoitlar yaratib berilgani qishli-qirovli kunlarda juda qo‘l keldi. Xonadonimiz, yashash sharoitimiz havas qilarli darajada o‘zgardi.

Hududda investitsiya dasturi, respublika va viloyat mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”, “Saxovat va ko‘mak” va jamoatchilik jamg‘armalari, tarmoq korxonalarining homiylik mablag‘lari doirasida keng ko‘lamda qurilish, ta’mirlash ishlari bajarildi. Aholining ehtiyojmand qatlamiga dehqonchilik qilish uchun yer, asbob-uskunalar uchun subsidiya, bandligini ta’minlash, moddiy yordam berish uchun kerakli mablag‘ ajratildi.

— Aholi farovonligi yo‘lidagi bunyodkorliklar odamlar ko‘nglini ko‘tardi, yangi maqsad, tashabbuslarga undadi, — deydi mehnat faxriysi Abdumuxtor Jo‘rayev. — Hamjihatlikda bajarilgan ishlarni ko‘rib, havasingiz ortadi. Mana, bo‘larkan-ku. Hamqishloqlarimiz o‘rtasida norasmiy ravishda “Kimning uyi, ko‘chasi chiroyli?” musobaqasi boshlanib ketgandek go‘yo. Har bir xonadon egasi “Obod xonadon — obod ko‘cha — obod mahalla” mezoni mazmun-mohiyatini to‘liq anglab, qo‘llab-quvvatlab, ko‘mak berdi. Bu borada boshlangan ishlar mavsumiy bo‘lib qolmaydi, albatta. Uy, ko‘cha va mahalladagi obodonlashtirish jarayonlariga guvoh bo‘lgan yoshlarimiz bu ezgu an’analardan o‘ziga ijobiy xulosa chiqarib olishi tabiiy.

Mahallada tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznes tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlash orqali ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish choralari ko‘rildi. Shu kunga qadar bu yo‘nalishlarda imtiyozli kredit olish istagini bildirgan 40 nafar fuqaroga 657 million so‘m berildi, 3 ta kichik loyiha ishga tushirilib, o‘ndan ortiq yangi ish o‘rni yaratildi. Umumta’lim maktabining bo‘sh turgan binosida yoshlarni kasb-hunarga

o‘rgatish markazi ochildi. Bu yerda mahalla yoshlari tikuvchilik bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

“Chirkay” mahalla fuqarolar yig‘ini uchun yangi bino qurib berildi. Zamon talablariga mos jihozlangan binoda mahalla “yettiligi” faoliyati uchun kerakli shart-sharoitlar yaratildi. “Jamoatchilik maskani” xizmati yo‘lga qo‘yildi. Mahalla binosiga tutash hududda mahalla bog‘i tashkil etilib, 300 tup manzarali, 700 tup gul ko‘chati ekildi. Atrofi obodonlashtirilib, o‘rindiqlar, sayr yo‘laklari qurildi. Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida futbol maydoni ta’mirlandi, Workout maydoni qurib bitkazildi.

— Mamlakatimiz bo‘ylab quloch yoygan bunyodkorlik ishlari Farg‘ona viloyatidagi boshqa mahallalarda ham hamjihatlik, ko‘tarinkilik bilan amalga oshirildi, — deydi viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig‘i Anvarjon Abdullayev. — Shu kunga qadar Qo‘shtepa tumanidagi “Shomirza”, Rishton tumanidagi “Pandigon” va Quva tumanidagi “Qoraqum” mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi 42 ko‘chada “Obod ko‘cha” mezonlarini joriy etish maqsadida 24,8 kilometrga asfalt, 22,9 kilometrga shag‘al yotqizilib, piyodalar yo‘laklari qurildi. 29,2 kilometr yangi elektr tarmog‘i tortildi, 12 ta transformator o‘rnatilib, 21 tasi ta’mirlandi. Yaroqsiz holatga kelgan 535 ta simyog‘och yangilariga almashtirildi, 604 ta qo‘shimcha simyog‘och, tungi yoritish chiroqlari o‘rnatildi. 60,4 kilometr toza ichimlik suvi, 0,6 kilometr oqova suv tarmog‘i tortildi, 7 ta suv minorasi o‘rnatildi, 3 tasi ta’mirlandi. Chirkay, Pandigon va Qoraqum mahallalarida “Jamoatchilik markazi”, “Nuroniylar maskan”lari qurib bitkazildi, yoshlar sport maydonchasi barpo etildi, 460 kishining bandligi ta’minlandi. “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan 242 kishiga 902 million so‘mlik yordam ko‘rsatildi. O‘zini o‘zi band qilish istagini bildirgan 112 xotin-qiz tikuv mashinalari, 4 nafar yosh motokultivator, 6 nafari elektr payvandlash va duradgorlik uskunalari bilan ta’minlandi. Tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilgan 14 ming 644 kishining 26 nafariga davolanish uchun order, 15 nafariga sihatgoh, sanatoriy va profilaktoriylarga yo‘llanma berildi. Shuningdek, nogironlik aravachasi, protez-

ortopediya vositalari, bepul dori-darmon yetkazib berildi. 97 kishiga 2 milliard 362 million so‘m kredit, 167 kishiga 1 milliard 69 million so‘m subsidiya olishga ko‘maklashildi. “Obod xonadon” va “Obod ko‘cha” ko‘rik-tanlovining 15 nafar g‘olibi esdalik sovg‘alar va faxriy yorliqlar bilan taqdirlandi.

Sirasini aytganda, yurt obodligi, aholi farovonligi yo‘lidagi hayotbaxsh islohotlar chekka va olis qishloqlarni obod va ko‘rkam maskanlarga aylantirmoqda. Buni e’tirof va e’tiborga sazovor bo‘layotgan amaliy ishlar ko‘rsatib turibdi.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Sherzod Qoraboyev olgan suratlar.

JARAYON

QIROVLI KUNLAR HALI OLDINDA

Bu yilgi qish hali Surxonni zabtiga olmadi. Shunga qaramay, viloyatda qish mavsumidan betalafot o‘tish ishlari bir zum bo‘lsa-da tingani yo‘q.
Hozir Surxondaryo viloyatida 129 mingdan ortiq iste’molchi tabiiy gazdan foydalanmoqda. Viloyatda ularga yuqori, o‘rta, past bosimli qariyb 2342 kilometr gaz quvuri orqali tabiiy gaz yetkazib beriladi.

Quvurlarning 43 kilometrdan ortig‘i yer ostidan o‘tgan. Tabiiy gaz ta’minotchilari kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik jarayonida mavjud quvurlarni nazoratdan o‘tkazib, holatini o‘rgandi. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun 29,85 kilometr gaz quvuri mukammal ta’mirlandi, 3,2 kilometr gaz quvuri rekonstruksiya qilindi.

— Qishning izg‘irinli kunlarida iste’molchilar mavsumga ko‘rgan hozirligimizga baho beradi, — deydi “Hududgaz Surxondaryo” gaz ta’minoti filiali bosh muhandisi Zayniddin Shodiyev. — Mavsumga tayyorgarlikni yozda boshlab, tegishli reja tuzib olganmiz. Barcha ishlar belgilangan rejaga muvofiq amalga oshirilmoqda. Masalan, Termiz avtomatik gaz tarqatish shoxobchasidan chiqqan 6,3 kilometr quvurda aniqlangan kamchilik bartaraf etilib, quvurning bir qismi yer ostiga olindi. Bu esa 7852 jismoniy hamda o‘nlab ulgurji iste’molchining gaz ta’minotini tubdan yaxshilab, ehtimoliy noqulay holatning oldini oldi.



Ma’lumotlarga ko‘ra, kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik davrida viloyat markazi, Termiz, Jarqo‘rg‘on, Sariosiyo, Denov va Qumqo‘rg‘on tumanlarida 17,4 kilometr gaz quvuri yer ustiga olinib, nosoz qismlari ta’mirlandi. Bandixon, Sherobod, Angor tumanlarida yer ostidagi yuqori bosimli tabiiy gaz quvurlarining 490 metri yer ustiga o‘tkazilib, yaroqsiz qismi almashtirildi. Natijada 45 mahalladagi 23 mingga yaqin xonadon va qariyb yuzta ulgurji iste’molchining tabiiy gaz ta’minoti yaxshilandi.

Zayniddin Shodiyevning aytishicha, ayni paytda gazchilar e’tibori mavsumni betalafot o‘tkazishga qaratilgan. Bu jarayonda barcha bo‘limlarda zaxira omborxonalari tashkil etishga e’tibor kuchaytirilgan. Buning uchun viloyat markaziy omborxonasida ham qo‘shimcha ehtiyot qismlar zaxirasi yaratilib, turli o‘lchamdagi quvur, karbid, payvandlash uchun zarur jihozlar taxt qilib qo‘yilgan.

Tuman va shahar bo‘limlarida kuz-qish mavsumida gaz ta’minotidagi nosozliklarni bartaraf etish uchun avariya-dispetcherlik qismlari, doimiy navbatchilik guruhlari tashkil etildi. Barcha gaz to‘ldirish shoxobchalarida tayyorgarlik ishlari yakunlandi.

— Omborimizda 52 turdagi ehtiyot qismlar zaxira qilindi, — deydi “Termizshahargaz” gaz ta’minoti bo‘limi boshlig‘i Fayzullo Hamroyev. — Qishda avariya yuzaga keladigan bo‘lsa, nosozlikni zudlik bilan bartaraf etish uchun barcha zarur choralar ko‘rildi. Doimiy navbatchilik guruhlari uchun maxsus avtotransport vositasi, tajribali payvandchi, chilangar ajratildi. Ular smena asosida doimiy ishlaydi. Barcha guruhlar maxsus mobil aloqa vositalari bilan ta’minlangan bo‘lib, viloyat markaziy dispetcherlik punktiga kelib tushayotgan murojaatlar hududlarga tezkorlik bilan yetkaziladi.

Shu kunlarda soha xodimlari hududlarda iste’molchilar o‘rtasida kuz-qish faslida maishiy gaz ballonlari va suyultirilgan gazdan xavfsiz foydalanishga qaratilgan targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazmoqda.

Aziz MASHRABOV,
jurnalist

BUYUK O‘ZBEK YO‘LI

KUCHLI MA’NAVIYAT – JAMIYATNI POKLANTIRUVCHI YOG‘DU

Qahramon QURONBOYEV,
siyosiy fanlar doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Bejiz ma’ruzada Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari — uyg‘oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san’at namoyandalari, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar, deb ta’kidlanmadi. “Chindan ham mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi G‘arb ilm-fani yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”, dedi davlatimiz rahbari.

Darhaqiqat, bugun zamon o‘zgardi. Uning shiddati haddan tashqari kuchli. Tevarak-atrofimizda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni tahlil etish, to‘g‘ri xulosa chiqarishdan og‘ir masala yo‘q. Kim haq, kim nohaqligini anglash tobora qiyinlashib bormoqda. Bir qutbli dunyoning ko‘p qutbli dunyoga aylanishi esa barchamizning avvalgi tasavvurlarimizni o‘zgartirib yubordi.

Qolaversa, bugungi dunyo butun jahon hamjamiyati qatori mamlakatimiz oldiga ham mutlaqo yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Bu hol, ayniqsa, mustaqilligimizni asrash, tinch hayotimiz, xalqimiz, avvalo, farzandlarimiz qalbi va ongi, kelajagini asrash borasida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Dunyodagi keskin mafkuraviy o‘zgarishlar, radikal, agressiv oqimlar kuchayib borishi, yon-atrofimizda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar barchamizni tashvish va xavotirga solmasdan qo‘ymaydi. Ayrim davlatlarda “buyuk davlatchilik” g‘oyasi, tajovuzkor guruhlar tomonidan yuritilayotgan, beozor bo‘lib ko‘ringan teskari targ‘ibotlar yashirin “jozibasi” bilan ko‘plarni rom aylayapti. Bugun ular yovuz basharalarini tobora oshkor etmoqda, vayronkor, buzg‘unchi g‘oyalari bilan qanchadan-qancha yoshlarni to‘g‘ri yo‘ldan adashtirmoqda.

Shu o‘rinda o‘zimizga savol berib ko‘raylik: tobora kuchayib borayotgan xavf-xatarlar, ziddiyatli holatlar, keskinliklardan saqlanishning yagona yo‘li hushyorlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlash ekanini hammamiz yaxshi tushunyapmizmi?

Jahonda yuz berayotgan ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, turli tahdid va xatarlardan el-yurtimizni himoya qilishning ishonchli tizimi yaratib berilganidan xabarimiz bormi?

Erkinlik niqobi ostida yoshlarimizni milliy qadriyatlar, ming yillar mobaynida shakllangan urf-odatlardan, qolaversa, o‘zligimizdan ayirishga urinayotgan soxta “do‘stlarimiz” ko‘payib borayotganini anglab yetyapmizmi?

Afsuski, bu savollarga javob topish juda qiyin. Yig‘ilishda bu haqda to‘xtalib, mamlakat rahbari bunday dedi: “O‘zimizga bir savol berib ko‘raylik: biz bugungi keskin sharoitda g‘oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryaptimi? Mana, bugun ma’naviy-ma’rifiy masala qanday o‘tkir va ko‘ndalang bo‘lib turibdi.

Bular oddiy savollar emas. Odamni jiddiy o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar. Agar biz bu yorug‘ dunyoda o‘zbek, O‘zbekiston degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo‘lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo‘yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo‘ladi”.

Bugungi murakkab g‘oyaviy-mafkuraviy sharoitda ma’naviyat va tarbiyaning biz uchun, kelajak avlod uchun qanchalar darajada zarurligi haqida bahs qiladigan zamonlar o‘tib ketdi. Chunki ma’naviyat, ma’rifat, tarbiya biz uchun suv va havodek kerakligini anglab yetmaganlar oramizda kam qoldi.

Biroq masalaning boshqa jihati bor. Jahonda g‘oyalar va mafkuralar kurashi tobora kuchayib borayotgan bir sharoitda mustaqilligimizga raxna soluvchilar hali maqsadlaridan voz kechmagan davrda, qolaversa, farzandlar tarbiyasiga hali o‘ngdan, hali so‘ldan ichki va tashqi tahdidlar yanada kuchayib turgan holatda “bizga ma’naviyat nima uchun kerak”, “ma’naviyat” so‘zini o‘zgartirish vaqti keldi”, deb ayyuhannos solayotganlar, vasvasaga tushayotganlar kamayish o‘rniga ko‘payib borayotganini qanday tushunish mumkin?

Nahotki, ular “ma’naviyat” so‘zining zamirini tarbiya, vatanparvarlik, axloq, milliy o‘zlik kabi tushunchalar tashkil etishini anglamasa! Vatansizlik g‘oyasini o‘zida singdirgan kosmopolitizm, bu dunyoni faqat rohat-farog‘atdan iborat deb biluvchi gedonizm g‘oyalari, erkinlik niqobi ostidagi axloqsizlik falsafasini targ‘ib etuvchi targ‘ibot texnologiyalari tobora kuchayib borayotgan bir sharoitda ma’naviyat masalasiga o‘ta jo‘n, qadrsiz qadriyat sifatida munosabat bildirayotganlarga, to‘g‘risi, rahmim keladi.

Ayrimlar dunyoning shiddat bilan globallashuvi davrida sekin-astalik bilan jamiyatimizga, ayniqsa, yoshlarimiz ongu shuuriga kirib, chirmovuqdek yopishib olayotgan “ommaviy madaniyat” va uning xatarli oqibatlarini sezmasligi ham barchamizni tashvishga solishi kerak, deb o‘ylayman.

Darhaqiqat, bugungi mafkuraviy vaziyat keskinlashgan bir davrda “ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi tahdidlarga qarshi kurash alohida o‘rin egallaydi. Muayyan darajada g‘oyaviy bo‘shliqdan foydalanib, axloqiy buzuqlik, zo‘ravonlik, individualizm, egotsentrizm kabi g‘ayriinsoniy g‘oyalarni tarqatishga intiladigan, katta mablag‘ va resurslarga ega “ommaviy madaniyat” butun insoniyatga tahdid solmoqda, uning ta’sir doirasi tobora kengayib bormoqda.

> **Bugun zamon o‘zgardi. Uning shiddati haddan tashqari kuchli. Tevarak-atrofimizda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni tahlil etish, to‘g‘ri xulosa chiqarishdan og‘ir masala yo‘q. Kim haq, kim nohaqligini anglash tobora qiyinlashib bormoqda. Bir qutbli dunyoning ko‘p qutbli dunyoga aylanishi esa barchamizning avvalgi tasavvurlarimizni o‘zgartirib yubordi.**

Ayni paytda biz “ommaviy madaniyat” deganda, negadir faqat G‘arbdan kirib kelayotgan ma’naviy-mafkuraviy tahdidlarni nazarda tutamiz. Aslida, shundaymi? Albatta, “ommaviy madaniyat”ning eng kuchli, ta’sirli oqimi xorijdan, asosan, G‘arb davlatlaridan kirib kelmoqda. Ammo o‘zbeklarda “Qovun qovundan rang oladi”, degan maqol bor. Shunga muvofiq, nazarimizda, ichimizda ham “ommaviy madaniyat”ning yangi-yangi shakllari kuchayib borayotgani achinarli holdir.

Bu narsa, ayniqsa, ayrim nodavlat teleradiokanallarda, xususan, “sariq matbuot” deb nom olgan nashrlarda ko‘proq uchramoqda. Oldi-qochdi gaplar, to‘rt-beshta kishidan bo‘lak hech kim tanimaydigan “estrada yulduzlari”ni ko‘kka ko‘tarib maqtash, falonchining uylanishi, pismadonchining turmushga chiqishi, liboslarning fasoni va bahosi kabi mavzularga bag‘ishlangan ko‘rsatuvlar, eshittirishlar, “maqola”larning tobora ko‘payib borayotgani barchamizni, butun jamiyatni bezovta qilyapti. Binobarin, bugun tashqi “ommaviy madaniyat” bilan birga ichki “ommaviy madaniyat” tomonidan kuchayib borayotgan tahdidlarga ham ko‘proq e’tibor berib, yoshlarimizni uning salbiy ta’siridan ogoh etish yo‘lini izlashimiz zarur.

Xo‘sh, bu salbiy holatlardan ogoh etadigan kuch bormi, qaysi amallarimiz bilan ushbu ziddiyatlarga to‘lib borayotgan, ommaviy axloqsizlikning ming xil turlari urchib, ko‘payib borayotgan dunyoda o‘zligimizni saqlab qola olamiz?

Faqat ma’naviyat bilan!

Bejiz mamlakatimiz rahbari: “Ma’naviyat — insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hurmat va e’tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo‘lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir. Boshqacha aytganda, ma’naviyat — jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha mustahkam bo‘lsa, xalq ham, davlat ham shuncha kuchli bo‘ladi”, deb ta’kidlamagan.

Ma’naviyat bo‘lgandayam, faqat kuchli ma’naviyat bilan. Xo‘sh, kuchli ma’naviyat deganda, nimani tushunish mumkin?

Bunday ma’naviyat, birinchidan, jamiyatning yangi ijtimoiy-ma’naviy qiyofasini shakllantirib beradi. Yangi ijtimoiy-ma’naviy qiyofa jamiyat a’zolarida sog‘lom tafakkur tarzini paydo qiladi, tevarak-atrofdagi voqea-hodisalarni tahlil qilishga va xolis xulosalar chiqarishga imkon yaratadi.

Ikkinchidan, kuchli ma’naviyat odamlarda o‘zgarayotgan dunyoda sodir bo‘layotgan turli tahdidlarga, g‘oyaviy-mafkuraviy xurujlarga javob bera oladigan kuchli immunitetni shakllantiradi.

Uchinchidan, kuchli ma’naviyat jamiyat barqarorligini ta’minlaydi, odamlarda dunyoni ezgulik, mehr-shafqat, insoniylik qutqarishi mumkinligi to‘g‘risidagi g‘oyani mushtarak e’tiqodga aylantiradi.

To‘rtinchidan, kuchli ma’naviyat jamiyat a’zolarida, ayniqsa, yoshlarimiz qalbida islohotlarga daxldorlik hissini oshiradi, yigit-qizlarimizda jamiyatga ijtimoiylashuvni kuchaytirishga yordam beradi. Kuchli ma’naviyat “men”ning “biz”ga aylanishini tezlashtiradi.

Beshinchidan, kuchli ma’naviyat mamlakatimizdagi barcha sohalardagi islohotlarning bardavomligini ta’minlaydi, ularga kuch beradi.

Oltinchidan, kuchli ma’naviyat jamiyatimizda demokratiya, ochiqlik, oshkoralik, erkinlik muhitini yaratadi, O‘zbekistonni demokratik, suveren, huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy davlatga aylantiradi.

Bularning bari, shubhasiz, O‘zbekiston jamiyatini yanada barqarorlashtiradi, odamlarda insoniylik, ezgulik, adolatlilik sifatlari ortishiga sabab bo‘ladi.

Yig‘ilishda mamlakat rahbari sohaning jamiyat hayotidagi o‘rni benihoya katta ekanini ta’kidlagan holda, uni mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarish lozimligini qayd etdi. Jumladan, Surxondaryo viloyatida bo‘lgan uchrashuvda ziyolilar tomonidan bildirilgan takliflar asosida hududlarda faoliyat yuritayotgan 4 ta sektorga qo‘shimcha ravishda ma’naviyat sektorini tashkil etish g‘oyasini qo‘llab-quvvatladi. Ma’naviyat sektori mahalliy davlat hokimiyati hamda joylardagi Ma’naviyat va ma’rifat kengashlarining ishchi tuzilmasi sifatida faoliyat ko‘rsatishi ta’kidlandi.

Ma’naviyat sektori jamiyatni yanada barqarorlashtiradi, kechayotgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy islohotlarga ma’naviy-ruhiy kuch beradi, samaradorligini oshiradi.

Haqiqatan, ma’naviyat bugun jamiyat va davlat taraqqiyotining hal qiluvchi omiliga aylanib bo‘ldi. Keling, yaxshisi, shu fikrni asoslashga harakat qilib ko‘raylik. Bugungi dunyo tahlikali dunyoga aylanib bo‘ldi. Millionlab odamlar bir burda nonga, bir tomchi suvga zor. Urushlar, vayronagarchiliklar ularning har kungi dardi-faryodiga sabab bo‘lmoqda.

Shunday sharoitda yurtimizdagi tinchlik-xotirjamlik, osoyishtalik, millatlararo totuvlik sabablaridan biri ma’naviy-ma’rifiy sohalarda qilinayotgan ishlar, yuzlab-minglab ziyolilarimizning chekka-chekka qishloq va ovullarga qadar yuritayotgan targ‘ibot-tashviqot tadbirlari tufayli emasmikan?

Ularning sa’y-harakatlari bilan odamlar ongiga mamlakat rahbari, hukumati yuritayotgan siyosat, tub islohotlarning mazmun-mohiyati singdirilmoqda. Ma’naviyat va ma’rifat aslida bugun butun jamiyatni birlashtiruvchi, kishilarni yagona maqsad — yangi O‘zbekistonni va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishga yo‘naltirilgan katta qadamlarni tartibga soluvchi qudratli kuchga aylanib bo‘ldi.

Kengash yig‘ilishida yana bir muhim masalaga alohida e’tibor qaratildi. Bu milliy g‘oyani rivojlantirish bo‘yicha dasturiy hujjat ishlab chiqish masalasidir. Darhaqiqat, milliy g‘oya millatning o‘tmishi, buguni va istiqbolini o‘zida mujassamlashtirgan, tub manfaatlari va maqsadlarini ifodalab, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g‘oya shakllaridan biridir.

> **O‘zimizga savol berib ko‘raylik: tobora kuchayib borayotgan xavf-xatarlar, ziddiyatli holatlar, keskinliklardan saqlanishning yagona yo‘li hushyorlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlash ekanini hammamiz yaxshi tushunyapmizmi?**

Prezidentimiz qayd etganidek, murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarning salbiy ta’siri ortib, odamlarning ongi va qalbi uchun kurash kuchayib borayotgan bugungi kunda yurtimiz sarhadlari va mamlakatimiz hayotining barcha sohalarini g‘oyaviy himoyalash ishlari zamon talablari, islohot va yangilanishlar sur’atidan ortda qolmoqda. Va bu tashvishli hol, albatta. Ushbu masalalarni o‘rganish borasidagi ilmiy tadqiqotlar esa tor doirada amalga oshirilmoqda. Ularning ba’zilari hozirgi hayot voqeligi va uning talablaridan uzilib qolgani, ayrimlarining natijalari amaliyotga sust joriy etilayotgani ham kutilgan samarani bermayapti.

Milliy g‘oya mamlakat taraqqiyotining obyektiv zarurati, milliy rivojlanishning qonuniy hosilasi sifatida yangi O‘zbekistonni barpo etayotgan xalqimizning maqsad-muddaolarini, orzu-intilishlarini ifoda etishi lozim. Ana shu masalalar bugungi xavotirli dunyoda biz uchun juda kerak bo‘layotir. Hech shubhasiz, yaratiladigan milliy g‘oya xalqimizni yangi maqsadlar sari yanada jipslashtiradi, jamiyatni yanada barqarorlashtiradi, hayotimizga ko‘rk kiritadi, turmushimizni farovon qiladi.

Milliy g‘oya bizni eski mafkuraviy, g‘oyaviy sarqitlardan xalos etadi. Shaxs manfaatlari bilan jamiyat manfaatlari uyg‘unligini ta’minlaydi. Qayd etish kerakki, xalqimizning qaddini yanada tik tutishi, aholi barcha qatlamlari manfaatlarini himoya qilish ham, hech shubhasiz, milliy g‘oya va uning jamiyatdagi o‘rniga bog‘liq. Shuning uchun ham mamlakat rahbari milliy g‘oyaning yaratuvchilik o‘rniga alohida ahamiyat bermoqda.

Shu bilan birga, bugun ma’naviyat sohasida bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar ham juda ko‘p ekanini aslo yoddan chiqarish mumkin emas. Bular o‘tkazilgan kengash yig‘ilishida ham alohida ta’kidlandi. Masalan, bugungi ma’naviy targ‘ibot ishlari zamon talablaridan ancha ortda qolib ketayotganini ham tan olish kerak.

Kuchli ma’naviyat, aslida, ma’naviyatsizlik va g‘oyasizlikka qarshi kurashar ekan, bunda endi eski targ‘ibot usullari bilan uzoqqa borib bo‘lmaydi. Shunday sharoitda biz internet orqali tarqatilayotgan buzg‘unchi g‘oyalar, g‘arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi “jozibador” tasvirlar va mediamahsulotlar tarqalishining oldini olishga qaratilgan ishlarning natijadorligi sezilmayotganini e’tiborga olishimiz juda muhim.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishning eng qulay omili uni ijtimoiy tarmoqlar orqali olib borishdir. Bugungi yoshlar shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyoda, axborot olami tobora kengayib ketayotgan bir davrda uzundan-uzun ma’ruzalarni eshitishga sabri chidamayapti. Buni biz, albatta, e’tiborga olishimiz lozim. Shu bois, targ‘ibot ishlarimizning katta qismini ijtimoiy tarmoqda, raqamli texnologiyalarda amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Tarixiy qahramonlarimiz va jadid bobolarimiz haqida turli galogramma, ijtimoiy va tarbiyaviy muammolar aks etgan ijtimoiy roliklar, Instagram va Telegram platformalari uchun vatanparvarlik tarbiyasiga qaratilgan kompyuter o‘yinlari, animatsion filmlar yaratishni bugungi kun talablaridan biri, deyish mumkin.

Yana bir muhim masala — ma’naviy targ‘ibot ishlarida xorij tajribasini o‘rganish ham samara beradi deb o‘ylaymiz. Xorijiy mamlakatlardagi raqamli targ‘ibotning asosiy yo‘nalish, shakl va usullarini o‘rganish orqali yoshlar ma’naviy ehtiyojlariga mos zamonaviy axborot resurslari va raqamli targ‘ibot mexanizmlari ishlab chiqilishi ham sohada tub islohotlarni amalga oshirishga ijobiy ta’sirini ko‘rsatishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar, raqamli targ‘ibot orqali biz ma’naviyatni kuchli qila olamiz. Ana shunda odamlarda jamiyatda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarning mazmun-mohiyatini o‘rganish, anglashga bo‘lgan tabiiy ehtiyoj yanada oshishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, ularning ijtimoiy faolligini, islohotlarga daxldorlik darajasini oshirishga imkon beradi.

Kuchli ma’naviyat odamlarning kayfiyati, qiziqishi, manfaatlarini ham muntazam o‘rganib borishni talab etadi. Ma’naviy targ‘ibot faqat va’zxonlikdan iborat tarzda bo‘lishi natijasida odamlarda bunday tadbirlarga qiziqish so‘nadi. Endi ularga chuqur tahlil kerak, masalaga ilmiy jihatdan yondashilgan holda asoslangan xolis xulosalar zarur.

Buning uchun esa fikrimizcha, aholi o‘rtasida turli so‘rovnomalar, sotsiologik tadqiqotlarning o‘rni ortib bormoqda. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzurida tashkil topgan Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti bu borada muayyan ishlarni amalga oshirmoqda. Yaqinda aholining ijtimoiy-ma’naviy kayfiyatini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan so‘rovnoma hali bu borada qator muammolar mavjudligidan dalolat beradi.

Ma’naviyatni jo‘n tushunish, ahamiyatini bilmaslik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar iyerarxiyasini anglamaslik kabi qator muammolar mamlakatimiz ziyolilari, ma’naviy targ‘ibotchilardan bu borada jiddiy ishlar qilishni talab etmoqda.

Targ‘ibotning ta’sirchanligi uning aniqligida namoyon bo‘ladi. Umumiy gaplar, odamlar har kuni eshitadigan turli axborotlar bugungi targ‘ibotning samarasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Uning xolisligi, asoslanganlik darajasi, mavhumlikdan yiroqligi har qanday targ‘ibotning yutug‘idir.

Ayrim hollarda ba’zi e’tiborsiz odamlar fazilat va illatni bir-biridan ajrata olmay qiynaladi. Ba’zan hayotimizda uchrab turadigan noxushliklar, qing‘ir ishlar, salbiy holatlarni jamiyatda sodir bo‘layotgan ijobiy o‘zgarishlar bilan taqqoslashda qiynaladilar. Atigi 6-7 yil avval O‘zbekiston qanday edi-yu, bugungi yangi O‘zbekiston qay ahvolda ekanini o‘z vatanini sevgan, taqdirini mamlakat va millat taqdiri bilan bog‘lagan har qanday inson osongina anglashi mumkin.

Yangi turar joylar, ko‘chalar, ko‘priklar, ishlab chiqarish korxonalari, zamonaviy talablarga javob beradigan ta’lim muassasalarini qanday ko‘rmaslik mumkin? Axir ular barchamizning ko‘z o‘ngimizda sodir bo‘lmoqda-ku, ularning ijodkori ham, bunyodkori ham o‘zimiz-ku!

Shu ma’noda, bugungi kuchli ma’naviyatli inson fazilat bilan illatning farqini anglaydigan, yaxshilikni ko‘rishga ishtiyoqmand, jamiyatda yuz berayotgan voqea-hodisalarga to‘g‘ri, xolis baho bera oladigan shaxsdir. Qolaversa, kuchli ma’naviyatli inson o‘z tafakkur tarzini takomillashtirishdan, o‘zini o‘zi rivojlantirishdan manfaatdor shaxs hamdir.

Mamlakat rahbarining Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi ma’ruzasi, aslida, ko‘p ming sonli ziyolilarimiz — shoir va yozuvchilarimiz, madaniyat va san’at xodimlari, ma’naviyat fidoyilarining ancha vaqtlardan buyon ko‘nglida to‘planib qolgan muammolarni hal etishga imkon bergan katta yig‘in bo‘ldi.

Kengash yig‘ilishida ta’kidlanganidek, uchrashuv ma’naviy hayotimizda yangi islohotlar davrini boshlab berdi. Biz yashab turgan tahlikali zamonda jaholat ham, ma’naviy tahdidlar ham bo‘lishi mumkin. Biz barchamiz kuchli ma’naviyatga suyangan holda xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ongida Vatanga muhabbat, yurtimiz kelajagiga daxldorlik, tinch, erkin va farovon hayotning qadriga yetish tuyg‘usini kuchaytira olamiz. Bu ayni haqiqat.

BUGUNNING GAPI

AQSH BOZORIGA “KIRISH CHIPTASI”

uni O‘zbekiston ishlab chiqaruvchilari Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib qo‘lga kiritdi

Boshlanishi 1-betda

Uyushma ko‘magida O‘zbekistondagi 10 dan ortiq to‘qimachilik kompaniyasi WRAP xalqaro ijtimoiy sertifikatiga loyiq ko‘rildi. Ayni paytda “Samarkand Apparel”, “Haj Tex”, “Gurlan Global Teks”, “Sangzor Tekstil”, “Tang Group”, “Hamza Expo Art Textile”, “Xojaobod Fayz-M”, “Realtex” kabi yana 9 korxona WRAP sertifikatini qo‘lga kiritish arafasida. Shulardan “UZTEX Group” kompaniyasi va “Yustex” MCHJ nafaqat yurtimizda, balki Markaziy Osiyoda birinchilardan bo‘lib ushbu standartni olgan ishlab chiqarish subyektlariga aylandi.

Kuni kecha sertifikatlar WRAPning muvofiqlik bo‘yicha katta direktori Xong Mey tomonidan ikki korxona rahbariga topshirildi.

— Avvalo, shuni ta’kidlash kerakki, bugungi kunda O‘zbekistonning jahon bozoridagi salohiyati tobora ortib bormoqda, — deydi Xong Mey xonim. — O‘zbek tadbirkorlari AQSH bozorlariga chiqish imkoniyatiga ega. Shuningdek, WRAP sertifikati Yevropa bozorlari eshigini ham ochib beradi. Bu, o‘z navbatida, ko‘plab jahon brendlarini o‘ziga jalb qilib, ularning hamkorlik zanjiriga qo‘shilishini ta’minlaydi.

WRAP sertifikati standartlarning eng qiyinlaridan bo‘lib, eksport uchun zarur bo‘lgan barcha ijtimoiy me’yor va qoidalarga muvofiqlikni tasdiqlaydi. Ya’ni u salohiyatli xaridorlarning axloqiy hamda mas’uliyatli biznes standartlariga sodiqligini ko‘rsatadi. Sertifikat ish joyidagi qonun va qoidalarga rioya qilishni talab etadi, majburiy hamda bolalar mehnatini taqiqlaydi. Qonunga muvofiq, kompensatsiya va imtiyozlarni, qonuniy ish vaqtini, salomatlik hamda xavfsizlikni, erkinlik va jamoaviy bitimlarni, atrof-muhit musaffoligini, bojxona muvofiqligini, xavfsizlikni qo‘llab-quvvatlaydi. Umuman, u jami 12 tamoyilga asoslanadi.

WRAP sertifikati baholash tizimiga ko‘ra, uch xil — “platinum”, “gold” va “silver” turlariga bo‘linadi. Turiga qarab, muddati belgilanadi. “Silver” sertifikati muddati olti oy, “gold” sertifikatiniki bir yil. Uch yil ketma-ket oltin sertifikati olgandan so‘ng korxona “platinum”ga munosib ko‘riladi va u ikki yil muddatga beriladi. O‘zbek korxonalariga esa hozircha eng yuqori ko‘rsatkich “gold” sertifikati taqdim etildi.

> **Sanoatni raqamlashtirish va elektron sotuvni ommalashtirish natijasida 2024-yilda eksportni qo‘shimcha 1 milliard dollarga oshirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Tarmoq korxonalarining yuqoridagi muvaffaqiyati esa imkoniyatlarni yanada kengaytirishga xizmat qiladi.**

Unga hujjat topshirish jarayoni ham o‘ziga xos. Arizadan so‘ng 1195 AQSH dollari miqdorida ro‘yxatdan o‘tish to‘lovi qilinadi. Keyin auditorlik kompaniyalari audit o‘tkazadi va uning natijalari bo‘yicha hisobot tavsiyalari muvofiqlik xodimlari tomonidan ko‘rib chiqiladi. Zarur hollarda tuzatish yoki qo‘shimcha ma’lumotlar talab qilinadi. Agar xulosa ijobiy bo‘lsa, WRAP xodimlari va uning mustaqil kuzatuv kengashining roziligi bilan korxonaga sertifikat beriladi.

Ta’kidlash joizki, to‘qimachilik sanoatida xalqaro standartlarning joriy etilishi mamlakatlar o‘rtasidagi savdo aloqalarini rivojlantirishni rag‘batlantiradi, xalqaro savdodagi to‘siqlarni bartaraf etadi, boshqaruv va nazorat tizimini takomillashtirish doirasida biznes rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

— Quvonarlisi, biz Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib faoliyatimiz uchun juda muhim bo‘lgan xalqaro ijtimoiy sertifikatga ega bo‘ldik, — deydi “UZTEX Group” kompaniyasi rahbari Shavkat Mirsolihov. — Bu katta imkoniyat. Endilikda to‘g‘ridan-to‘g‘ri AQSH bozoriga kirib borib, xalqaro darajadagi to‘qimachilik brendlari bilan bevosita muloqot, hamkorlik qila olamiz. Shuningdek, ushbu mamlakatda savdo nuqtalarimizni tashkil etib, faoliyatimizni kengaytiramiz.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, mamlakatimizda importchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlashga katta e’tibor qaratilib, qulay shart-sharoit yaratib berilmoqda. Jumladan, Eksportni rag‘batlantirish agentligi tomonidan shunday sertifikat olgan korxonalarga ma’lum miqdorda subsidiyalar ajratilishi ham biz, tadbirkorlarni yangi marralar sari undaydi.

O‘n yildan ortiq vaqt mobaynida to‘qimachilik sanoatidamiz. Kompaniyamizni shu paytgacha Yevropa mintaqasi, MDH mamlakatlari bozorida yaxshi bilishardi. Endi bizni AQSHda ham tanishadi. Bu o‘n mingdan ortiq jamoamiz zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi, albatta.

Mutaxassislar keyingi yillarda o‘zbek matolari va tayyor mahsulotlariga qiziqish yuqori bo‘layotganini aytmoqda. Shu bilan birga, yakunlanayotgan yil to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar uchun sinovli bo‘ldi. Nimaga? Bir tomondan, pandemiyaning ko‘plab mamlakatlar, xususan, Xitoy iqtisodiyotiga ta’siri, paxta va to‘qimachilik mahsulotlariga bo‘lgan talabning pasayishi, ikkinchi tomondan esa o‘zbek to‘qimachilik mahsulotlariga qiziqishning ortishi korxonalarni biznes siyosatini o‘zgartirish va mahsulotlar sifatiga bo‘lgan talablarni qayta ko‘rib chiqishga undadi.

Ilgari yigiruv korxonasini yaratish yoki yirik tayyor mahsulot ishlab chiqarish fabrikalari ommabop biznes bo‘lgan bo‘lsa, hozir barqaror kuzatuvchan ishlab chiqarish talablari ommalashishi tufayli vertikal integratsiyalashgan korxonalar soni tobora ortib bormoqda.

Paxta-to‘qimachilik klasterlari tizimiga o‘tish orqali bo‘yash va kiyim-kechak ishlab chiqarishni kengaytirish uchun qo‘shimcha imtiyozlar yaratilishi butun to‘qimachilik ishlab chiqarish siklini qamrab oluvchi xoldinglar sonini sezilarli darajada oshirish imkonini berdi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yil 11 oyi yakunlari bo‘yicha to‘qimachilik mahsulotlari eksporti hajmi o‘tgan yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Ya’ni ip-kalava eksporti 30,6 ming tonnaga ko‘paygan. Matolar toifasida ham sezilarli o‘sish — eksport hajmi 238 million kvadrat metrga ortgan. Tayyor mahsulotlardagi o‘sish esa 122 foizdan ortiqroqni tashkil qildi.

Bundan tashqari, mamlakatimizda “Better Work” va “Better Cotton” kabi tashkilotlar faoliyati yo‘lga qo‘yilishi bilan o‘zbek to‘qimachilik mahsulotlari 27 dan ortiq jahon brendlarining yetkazib berish tarmog‘iga kirdi. GSP+ imtiyozlari kengaytirilishi, xususan, Germaniya, Italiya va Polsha davlatlariga eksport hajmini oshirish imkonini berdi.

To‘qimachilik eksportidagi yana bir yutuq — elektron tijorat bo‘lmoqda. Sanoatni raqamlashtirish va elektron sotuvni ommalashtirish natijasida 2024-yilda eksportni qo‘shimcha 1 milliard dollarga oshirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Tarmoq korxonalarining yuqoridagi muvaffaqiyati esa imkoniyatlarni yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Dilshod ULUG‘MURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

KEKSALAR O‘GITI

Suv tuganmas EMAS

UNDAN TEJAB-TERGAB FOYDALANISH HAR BIRIMIZNING BURCHIMIZ EKANINI HECH QACHON UNUTMAYLIK!

Suv tanqisligi dunyoda yildan-yilga eng xavotirli muammoga aylanib bormoqda. Iqlimning isib ketishi va suv resurslaridan tejamay foydalanish suv inqiroziga sabab bo‘lishi mumkinligi haqida tez-tez gapirilmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, bugun dunyoda 2,3 milliard kishini suv bilan ta’minlash eng dolzarb muammo bo‘lib turibdi. 1 milliard aholi toza ichimlik suviga ehtiyoj sezyapti. 400 million odam esa suvsizlikdan azob chekmoqda.

Norqul NUSHAROV,
O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armasi Jizzax viloyati bo‘limi raisi

Afsuski, ushbu global muammo O‘zbekistonimizni ham chetlab o‘tayotgani yo‘q. Prognozlarga ko‘ra, yaqin yillarda mamlakatimizda suvga bo‘lgan talab sezilarli darajada oshib, yurtimiz suv tanqisligi bo‘yicha xavfli hududlar qatoriga kirishi mumkin.

Shu sababli suvdan oqilona va samarali foydalanish eng dolzarb vazifaga aylangan. Jumladan, davlatimiz rahbarining saylovoldi dasturida suv resurslarini tejashga alohida e’tibor qaratilib, 2030-yilga qadar yurtimizdagi ekin maydonlarini to‘liq suv tejaydigan texnologiyalarga o‘tkazish, bu borada fermer, klaster va dehqonlarga imtiyozlar berish belgilangan edi. Ushbu maqsadda suv xo‘jaligi sohasini kompleks rivojlantirish, mavjud suv resurslaridan oqilona foydalanishga kirishildi. Raqamli va suvni tejovchi sug‘orish texnologiyalari keng joriy etilmoqda, aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash bo‘yicha yangi, istiqbolli loyihalar amalga oshirilyapti. Prezidentimiz nafaqat yurtimiz, balki qo‘shni davlatlardagi suv muammolarini hal etish yuzasidan ham amaliy takliflarni ilgari surmoqda. Mintaqadagi suv muammolarini hal etish uchun qo‘shni mamlakatlarni ham faol hamkorlikka chaqirib, kelajak rejalarini tuzishga undamoqda.

Ayniqsa, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida ushbu masalada so‘zlagan nutqi jahon hamjamiyatini, sizu bizni, barchamizni yana bir bor ogohlikka da’vat etdi.

Davlatimiz rahbari Markaziy Osiyoda suv resurslari taqchilligi bilan bog‘liq masalaga alohida urg‘u berar ekan, BMT Bosh kotibining Suv resurslari bo‘yicha maxsus vakili lavozimi ta’sis etilishini qo‘llab-quvvatladi. Markaziy Osiyoda suvni tejaydigan texnologiyalar platformasini yaratish jarayonida “Birlashgan Millatlar Tashkiloti — suv resurslari” mexanizmini ishga solib, eng ilg‘or texnologiyalarni jalb etish va tatbiq qilish tarafdori ekanini ta’kidladi.

Joriy yil 15-sentabr kuni Tojikistonda bo‘lib o‘tgan Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi ta’sischi davlatlari rahbarlari kengashining navbatdagi yig‘ilishida ham suv va boshqa tabiiy resurslardan tejab-tergab foydalanish madaniyatini shakllantirish bo‘yicha maxsus dastur qabul qilish, bu borada yoshlar tashabbuslari va startaplarini qo‘llab-quvvatlashni mintaqaviy darajada tashkil etishga alohida e’tibor qaratish zarur, degan taklifni ilgari surdi.

Ichki siyosatda ham kelgusida kutilayotgan suv tanqisligini yumshatish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish masalasini kun tartibiga qo‘ydi. Kelgusi 7-yilda mamlakatimizning asosiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab beruvchi muhim dasturilamal hujjat bo‘lgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi bunga yaqqol misoldir. Strategiyaning 3-yo‘nalishi suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilishga bag‘ishlangan.

Yaqinda davlatimiz rahbari Surxondaryo viloyatini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda keng jamoatchilik va ayniqsa, biz, nuroniylar bu borada faol bo‘lishimiz lozimligini qayd etdi. “Suv tuganmas emas”, degan g‘oyani aholi ongiga chuqur singdirish, uni mahalla faollari, nuroniylar, ziyolilar va keng jamoatchilik bilan birga kundalik turmush qoidasiga aylantirish asosiy vazifamiz bo‘lishi lozimligini uqtirib, kelgusida suv taqchilligi bilan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarga bugundan yechim izlashga barchamiz mas’ul ekanimizni yana bir bor eslatib o‘tdi.

Shuningdek, joriy yil 29-noyabrda Qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan oqilona foydalanish va yo‘qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ham suvdan tejamkorlik bilan foydalanish borasida barcha mas’ullarga zarur topshiriq va vazifalar belgilab berildi. Yig‘ilishda bir yil davomida suvni tejash bo‘yicha favqulodda ish tizimiga o‘tilishi ta’kidlandi.

Shundan kelib chiqib, yaqinda Jizzax viloyati faollarining qishloq xo‘jaligi yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona (fermer, dehqon xo‘jaliklari, klaster)lari rahbarlari va mahalla raislariga suvni tejamkorlik bilan ishlatish bo‘yicha murojaati qabul qilindi. Zero, Jizzax viloyatida ham suv muammosi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Aytish joizki, viloyatda foydalanilayotgan suvning 80-90 foizi qo‘shni davlatlardan ming mashaqqat bilan olinmoqda. Ushbu suv uchun davlat byudjetidan bir yilda o‘rta hisobda 326,2 milliard so‘m mablag‘ sarflanyapti. Shunga qaramasdan, suvdan xo‘jasizlarcha foydalanish, afsuski, davom etmoqda. Misol uchun, qo‘shni Qozog‘iston va Qirg‘iziston respublikalarida 1 gektarga 6-7 ming kub metr, rivojlangan davlatlarda 4-5 ming kub metr suv sarflanayotgan bir paytda, Jizzaxda 10-12 ming kub metr suv sarf etilmoqda.

Viloyatda 776 kilometr xo‘jalik ichki kanallar, 5141 kilometr ichki ariqlar mavjud bo‘lib, shundan 186,7 kilometr xo‘jalik ichki kanallar, 963,7 kilometr ichki ariqlar betonlashtirilmagan. Xo‘jalik ichki kanallar va ichki ariqlarning tozalanmagani yoki beton bilan qoplanmagani oqibatida har yili 800-900 million kub metr suv yo‘qotilayotgani yoki davlat byudjetidan ajratilayotgan 194 milliard so‘m mablag‘ havoga uchib ketayotgani achinarli hol. Vaholanki, yo‘qotilayotgan suv bilan qo‘shimcha 236 ming gektar yerni bir marta sug‘orish mumkin, shu pulga farzandlarimiz, nevaralarimiz uchun 19 ta maktab yoxud 39 ta bolalar bog‘chasi yoki 6 ta shifoxona qurib, ishga tushirsa bo‘ladi.

Shunday ekan, endilikda har birimiz suv resurslaridan oqilona foydalanish, ichimlik suvi ta’minoti, uni tejash bilan bog‘liq dolzarb muammolarni hal etishga o‘z hissamizni qo‘shishimiz shart. Bu ezgu ishga bugun har bir mahalla, har bir oila, har bir fuqaro birdek kirishmog‘i lozim.

Bu borada, avvalo, biz, nuroniylar tashabbusni qo‘limizga olib, aholi o‘rtasida suvdan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirish uchun tushuntirish ishlarida faol qatnashmog‘imiz shart. Ota-bobolarimiz yosh avlodni azaldan “Suvga tupurma”, “Suvni isrof qilma”, “Suv keldi, nur keldi”, “Suv — hayot manbai”, “Oldingdan oqqan suvning qadriga yet”, “Suvning uvoli yomon”, “Suv keltirgan elda aziz”, deya tarbiyalagan. Qariyalarimiz dasturxon ustida duoga qo‘l ochar ekan, yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo‘lishini tilash asnosida daryolarimizga mo‘l suv, dehqonchiliklarimizga barokat tilaydi. Ana shu qadriyatlarimizga amal qilish hammamizning burchimizdir.

Ming afsuski, biz dunyo miqyosida olganda, suvdan o‘ta isrofgarchilik bilan foydalanayotganlardan biri ekanmiz. Demak, suvni asrashni, uni tejash kerakligini unutyapmiz. Xonadonlarda suvdan foydalanish, ayniqsa, dala hovlilardagi bog‘larda suv isrofgarchiligi juda yuqori. Ushbu xonadonlardagi ochiq suv havzalari (hovuz, basseynlar) ichimlik suvi bilan to‘ldiriladi, ko‘p hollarda bu suv tez-tez yangilanadi. Avtoulovni tozalashda ham ichimlik suvidan foydalanamiz. Ayrim joylarda bog‘larimiz, ekinlarimiz soatlab ichimlik suvi bilan sug‘orilishini ham bilamiz. Ba’zi korxona-tashkilotlar, ovqatlanish shoxobchalaridagi jo‘mraklardan tinimsiz oqayotgan suvning hisobi yo‘q. Bebaho ne’matni o‘z qo‘limiz bilan uvol qilyapmiz. Iste’mol qilgan ichimlik suvi uchun to‘lovlarni ham o‘z vaqtida amalga oshirmaymiz. Bu holat muammo ustiga muammo bo‘lmoqda.

Keling, aziz yurtdoshlar! Ichgan suvimizning pulini o‘z vaqtida to‘lashni o‘rganaylik. Aholini, barcha iste’molchilarni o‘rgataylik. Xalqimiz o‘rtasida suvdan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantiraylik. Bu xayrli ishni “bog‘cha — maktab — oliygoh” tamoyilida, eng muhimi, oilada doimiy olib borishni yo‘lga qo‘yish yaxshi samara berishi aniq. Axir hammamizning niyatimiz, fikrimiz ezgu, so‘zimiz, amalimiz ham ezgudir. Dunyo tamadduniga tamal toshi qo‘ygan ajdodlarimiz ana shu g‘oya asosida ish tutgan.

Har qanday xayrli va savobli ish nuroniylarimiz duosi bilan boshlanadi. Chunki ko‘pni ko‘rgan otaxonu onaxonlarimizning hayotiy tajribasi, ezgu tilaklari barchamizga kuch-g‘ayrat bag‘ishlaydi. Shunday ekan, biz, nuroniylar har ishda bosh bo‘laylik. Yangi O‘zbekistonni barpo etishda, ona yurtimiz taraqqiyotiga hissa qo‘shishda yoshu qari tashabbus ko‘rsataylik, nonni qanday e’zozlasak, suvni ham shunday e’zozlaylik. Ulug‘ ne’mat bo‘lgan suvni tejashni yosh avlodga o‘rgataylik. Suvni tejash va isrof qilmaslik tamoyilini kundalik mezonimizga aylantiraylik. Zero, bu bebaho ne’matlardan kelgusi avlodlarimiz ham bahramand bo‘lishi uchun hammamiz birdek mas’ulmiz.

BIZNING SUHBAT

RENESSANS ZABTI
ma’naviy-aqliy hodisalardan quvvat oladi

Boshlanishi 1-betda

— Ibrohim aka, yakuniga yetayotgan yilimiz poyonida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi tobora uyg‘onib, yuksalib va birlashib borayotgan turkiy dunyoning muhokamalar markaziga aylanayotgan, jahon hamjamiyatida o‘z o‘rniga, pozitsiyasiga, qat’iy so‘ziga ega bo‘layotgan O‘zbekiston davlatining sarhisob onlariga munosib xotima bo‘ldi. Shunday emasmi?

— Asr to‘lqinlari yuraklarda jaranglab aks-sado topadi. Vatanimizning har burchagidan quvonchli, hayajonli xabarlar oqimi ongimiz, shuurimizni to‘laligicha egallab oladi. O‘zbekistonimizda g‘ayrat, rag‘bat, jasorat jo‘sh urmoqda. Xalqimiz o‘z yetakchisi bilan birgalikda ilm-fanni egallash, kashfiyotchilik, kordonlik, ishbilarmonlik bilan o‘tgan esda qolarli damlarning sarhisobini qilmoqda.

Prezidentimizning Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining navbatdagi yig‘ilishidagi nutqini eshitib, o‘zimni unutilmas voqealar ishtirokchisidek sezmoqdaman, qalbim samoviy tuyg‘ularga to‘lmoqda. Ijodkorlar yaxshi his qiladi, kishi qalbi hayajonga to‘lib tursa, u, albatta, doim jo‘shib, to‘lqinlanib yuradi.

Keyingi yillarda O‘zbekiston jahonga ochildi, dunyo O‘zbekistonga havas bilan qaramoqda. Dunyoviy va insoniy maqsadlar yo‘lida og‘ishmay kelmoqdamiz. Bugun Kaspiy tomon yo‘llar bizni barqaror Yevropa va taraqqiyparvar Turkiyaga va ular osha Atlantikaga olib chiqadi. Oltiariq uzumlarining shuhrati Nyu-Yorkkacha yetib bordi, qanchalar mashaqqatli bo‘lmasin, qutlug‘ sa’y-harakatlar bilan Orol hududlarida yashil makonlar barq ura boshladi. O‘lik sahrolarda hayot paydo bo‘lmoqda.

O‘zbekiston dunyoning sakkiz tomoniga najib yo‘llar solayotgani bilan insoniyatni hamjihatlik, birdamlik, hamkorlikka undamoqda. Shu bois, xalqaro miqyosda ishonch va e’tibor, hurmat va e’tirof qozonmoqda.

Adabiyotchi bo‘lganim bois, bu yuksalish yo‘llarini barcha olamshumul xususiyatlari barobarida, tom ma’noda, asrimiz odamlari qalbiga kirib borayotgan yo‘llar, deb atagim keladi. Kimlar qadim yo‘llarni buzmoqda, O‘zbekiston esa buyuk tarix yo‘llarini tiklamoqda. Bu yo‘llar shunchaki bir makondan boshqa makonga olib boradigan yo‘llargina emas, ular tamomila zamona konsepsiyalari va hayotbaxsh dasturlardir. Biz endi ularni yangi tushunchalar bilan “Markaz” deb ataymiz. Qanday yaxshi!

Yo‘llarning mundarijasi va mazmuni g‘oyat tig‘iz. Biz shu yangi O‘zbekiston yo‘llaridan emin-erkin yurib, dam-badam ro‘paramizdan chiqayotgan qarama-qarshiliklarni yengib o‘tib bormayapmizmi,

yosh avlodni ilm, iroda bilan chiniqtirmayapmizmi, ular ongini ilm-fan, yuksalish g‘oyasi bilan to‘ldirmayapmizmi?! To‘ldiryapmiz, chiniqtiryapmiz! Har qanday sharoitda yashovchan qilishga urinmoqdamiz. Real tushunchalarga oshno qilmoqdamiz, real baho va xulosalarga ko‘niktiryapmiz. Odam real tushunchalar bilan yashasa va o‘zini hayot uchun tarbiyalasa, Prezidentimiz aytmoqchi, albatta, o‘zining katta insonparvarlik yo‘lini topib oladi, inshaalloh! Yo‘llar va real siyosat bu — davlat rahbari har birimizdan talab qilayotgan ma’naviy-aqliy hodisa! Men bir ijodkor sifatida mana shu hodisani o‘z ruhoniyatimda juda aniq sezib turaman. Ular meni hech narsaga qaramay, harakatga chaqiradi. Zamon bizni shunday ishlarga chaqirib turmasa, kimmiz o‘zi?!

Erkin nashriyotlar, erkin tahririyatlar, jurnalistlar jamoalari jamiyatimizning eng og‘riqli dardlari ustida jon kuydira boshlaganini hammamiz ko‘rib turibmiz. O‘ylaymanki, eskicha ishlashdan voz kechib, tamomila yangi yozuvchilar ham jahon fikr maydoniga tushadi. Jang faqat

> **Davlatimiz rahbari bizga, yoshlarga mislsiz ufqlar ochyapti. Buning uchun yoshlar ijodkorlik nafasi bilan yashab, o‘zlariga chin ma’nodagi estetik va etik axloqiy, ruhoniy zamin yaratishi va ularni o‘z umr yo‘llari, izlanishlarida mahkam tutishi kerak bo‘ladi. Yoshlarga qiziqishlari shakllanishida izchillik, iroda va matonat kerak. Hech qanday to‘siqlar yo‘q. To‘siqlar fe’l-atvorimizda bo‘lishi mumkin. Dunyo har tomondan o‘zgarib boryaptimi, demak, biz ham o‘zgarishimiz kerak. Dunyo bizni ezgu ishlarga chorlayaptimi, biz ham labbay, deb javob berib chog‘lanishimiz kerak.**

shaxmat taxtasi va ranglarda emas, hayotning har bir dami jang! Ammo bu janglarda eskilik o‘ladi, yangilik, yangi aql-idrok, hissiyotlar bosh ko‘taradi. Renessans shunday zabtga ega bo‘ladi. Hayotda mutlaqo inkor qilib bo‘lmas haqiqatlar bor: ozod makon, ozod dil, ozod adib, ozod fermer, ozod jurnalist, ozod ilm-fan, ijod endi chin mulkimiz, kelajakka o‘lmas merosimiz. Bularning ulug‘ xiyobonlari, ulug‘ yo‘llari, ulug‘ kitobxonlari mavjud. Shularning nashidasi bilan yana bir yil poyonida turibmiz, sog‘-omonmiz. Yangi yil ham qutlug‘ kelsin, ilohim!

— Davlatimiz rahbari yig‘ilishda ma’naviyat va madaniyat sohasidagi ishlarimiz uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladigan milliy g‘oyamizni rivojlantirish bo‘yicha alohida dasturiy hujjat ishlab chiqish lozimligini ta’kidladi. Dunyoviy davlat konsepsiyasi qanday ma’naviy-ma’rifiy mezonlarga asoslanishi zarur deb bilasiz? Umuman, Prezidentimiz tashabbusi bilan e’tiborimiz markaziga qo‘yilayotgan dovon — ma’naviy taraqqiyot jarayoni qanday evrilishlar va o‘zgarishlar asosida ro‘y berishi mumkin?

— Tabiatda o‘zicha bexos dumalab yotgan tosh yo‘q. Hozir huzurlanib, dumalab yotganday ko‘ringan bu tosh vaqti kelganda, inson uchun qurilgan bir muhtasham binoning peshtoqi yo poydevoridan o‘z o‘rnini topadi. Bunga zarracha ishtiboh yo‘q. Tabiat va jamiyatning munosabatlari va tinimsiz olib boradigan muzokaralari, bosh-keti ko‘rinmaydigan muloqotlarida hamma narsaning o‘rni va ma’nosi qidiriladi. Kembrijga o‘qishga kirmoqchi bo‘lib kuyib-pishib imtihon topshirib yurgan qizchani sinov tariqasida “Ma’naviyat nima?” deb so‘roqqa tutsangiz, darhol: “Ma’naviyat bu ma’no degani, amaki, shuni ham bilmaysizmi?” deb sizni izza qilib qo‘yadi. Va o‘zining Kembrijda tahsil olishga da’vosini ko‘z o‘ngingizda oqlaganday ham bo‘ladi. Bunday qiziquvchan va intiluvchan yoshlar keyingi yillarda ko‘p ko‘zga tashlanmoqda. “Aqliga balli!” deysiz banogoh.

Va bu yangi O‘zbekiston voqeligining juda xarakterli belgilaridan biri. Chirchiqlik bu qizcha sizga yaltiroq papkasidan bir necha kitobchalarini ham olib ko‘rsatadi. Ular ichida o‘zi uchun yozgan “Ingliz tilini o‘zbek tiliga qiyosan o‘rganish metodologiyasi” degani ham bor. Hali o‘n oltiga ham kirmagan bu qizchaning g‘ayrati oldida lol bo‘lib, o‘yga cho‘mib turasiz: ma’rifatparvar, ilmparvar, erkparvar, ajdodlar orzu qilib kurashgan nasl shular bo‘lsa kerak, deb hayrat barmog‘ingizni peshonangizga tiraysiz. Uni tamiz bilan yana bir oz tinglang: sizga ma’naviyat va ma’rifat so‘zlari inson hayotining tub asosini bildiradigan, katta harflar bilan yoziladigan Ma’naviyat va Ma’rifat tushunchalariga aylanganiga o‘ttiz yil bo‘layotganini va ular endilikda huquqiy-demokratik jamiyatimizda o‘zak tushunchalar bo‘lib borayotgani, yana ham muhimrog‘i, milliy g‘oyamizning yemirilmas, mustahkam zamini ekanini sizga professorlardan ham yaxshiroq bayon qilib beradi.

Qarang, shunday avlod kelyapti. Dunyoning katta yo‘llariga chiqyapti. Tabiatda hamma narsa parvarish va e’tibor bilan yuzaga chiqadi. Inson tabiat va jamiyat bilan uzluksiz muzokarada o‘zini topadi, o‘zligini anglaydi, o‘ziga muhit yaratadi. Ma’naviyat va ma’rifatga yaxlit qaraylik, yaxlit yombi hodisa deb bilaylik. U madaniyat, san’at, adabiyot, ta’lim, kitob, jurnal, gazetalar, xalqaro bordi-keldilar, diniy e’tiqodlar, bepoyon jonli muloqotlarni va bulardan ham avvalroq axloqiy tarbiya ta’limini o‘z ichiga oladi va mudom ular bilan chambarchas bog‘langan holda yuksalib, o‘zini o‘zi yaratib boradi. O‘zini o‘zi yaratib va yangilab boradi, degan tushunchaga e’tiboringizni qaratmoqchiman.

Bu har bir inson ongi va qalbida kechadi. Tuyg‘u va hissiyotlarni yuzaga chiqaradi. Eng muhimi, u insonga suv va havodek zarur qadriyatlarni yuzaga keltiradi va harakatga soladi. U to‘xtovsiz yangilanib boradi. Prezidentimizning Ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig‘ilishidagi nutqida “Ma’naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak”, degan tezis o‘rtaga tashlandi va “yangi” so‘ziga urg‘u berildi. Shu tariqa u yangi O‘zbekiston, yangi Uyg‘onish, yangi dunyoviy davlat, degan ijtimoiy-falsafiy hodisalarga tom ma’noda hamohanglik kasb etdi. Yana bir karra qaytaraman: bularning bari juda yaxlit. Ularga yaxlit bir butunlikda qaramoq va munosabatda bo‘lmoqlik talab etiladi.

Hozirgi zamon shundayki, ma’naviyat va ma’rifatni o‘lmas, bitmas-tuganmas qadriyat bilib, har ikkisiga ongimiz, tafakkurimiz, dunyoqarashimizda yangi yo‘nalish bera olamizmi, degan juda katta masala ko‘ndalang turadi. Chunki raqamli dunyoga kirdik. Gazetalarning istilohlari kundan-kun murakkablashib, ijtimoiylashib, siyosiylashib bormoqda. Bundan ko‘z yumishning iloji yo‘q.

Prezidentimiz o‘z nutqida ma’naviyat va ma’rifatning bugungi o‘n bitta sohasini tilga oldi va ularni zamon, odamlarning iqtidorlari nuqtayi nazari bilan tahlildan o‘tkazdi.

Davlatimiz rahbari har bir sohaning taraqqiyoti uchun raqam keltiradi. Har o‘rinda gap milliardlar, trillionlar ustida boradi. Quruq qoshiq og‘izni yirtadi. Prezident ma’naviyat sohalariga iqtisodiy zamin, mustahkam tayanch bo‘lmasa, rivojlanish bo‘lmasligini yetuk iqtisodchi sifatida teran biladi.

Trillionlar bor-u, lekin ularni tasarruf qiluvchilarning kayfiyati qanday? Ma’naviyat maskanlarining arxitekturasi qanday bo‘lishi kerak?

Ma’naviyat sohalarida, ularning minglab kadrlari kahkashonida real ta’sirchanlikka erishish uchun qanday modellar, qanday metodlar ishlab chiqishimiz kerak? Axir modellarsiz, ilmiy nazariyalarga asoslangan metodlarsiz hozirgi zamonda bir qadam ham siljib bo‘lmaydi-ku! Balki ma’naviyatning boshqarish tizimlarini optimal tarzda yangilash zaruratga aylanayotgandir... Axir yangi kuch, yangi harakatga aylanishning boshqa yo‘li yo‘q-ku! G‘oyalar va qadriyatlar ma’naviyatning matritsasi emasmi? Yangi ma’naviyat nimalarda namoyon bo‘ladi, qanday? Buni ado etish uchun ichki erkinlik yetarlicha mustahkammi?

Men “Yoshlar uchun ming kitob” loyihasi haqida o‘qiganimda yaxshi musiqa eshitganday hayajonlandim. Ko‘z o‘ngimda ufqlar to‘la dunyo kitoblari manzarasi yastandi. Eski odamman, shekilli, bu ruhoniy manzarani xayolimga sig‘dira olmadim. Haqiqatan, bunday ulug‘vor ishlar uchun yangi nasllar maydonga chiqayotganga o‘xshaydi. Prezidentimiz yoshlarni har tomonlama rag‘batlantirayotgani, g‘ayrat va shijoatga undayotgani bejiz emas.

— Suhbatlaringizdan birida “Bizning o‘zbek-turkiy sivilizatsiyamiz el-yurt manfaatlarini birinchi darajali deb bilishdan, yurt, til birligi tuyg‘usidan barqaror bo‘ldi. IX asrdan boshlab o‘zbek sivilizatsiyasi islom sivilizatsiyasi bilan tutashdi va o‘z mundarijasi, ufqlarini bo‘yitdi. Men Navoiyni yaxlit bir sivilizatsiya deb bilaman. Jadid ajdodlarimiz Navoiy sivilizatsiyasining davom ettiruvchilari bo‘ldi. Uning ma’rifatini yangi zamonlarga olib kirdilar. Bu ezgu ishga boshlarini tikdilar”, degansiz. Biz siz mansub ijodkorlar avlodi — Said Ahmad, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, O‘tkir Hoshimovni ham yashovchan g‘oyalar va ulardan tug‘ilgan go‘zal asarlar mualliflari sifatida jadidlarga izdosh madaniy avlod deb atagimiz keladi. Ustoz, mana bugun 86 yoshni qarshi olyapsiz. O‘zingiz bosib o‘tgan ijod va umr yo‘liga qanday ta’rif bergan bo‘lardingiz?

— Jadidlarga izdosh madaniy avlod! Qanday zo‘r fikr! Jadidlarga izdoshlikning esa buyuk insoniy ijodiy mas’uliyati bor. Men hozirgi yoshlar avlodi bu vazifani o‘z zimmasiga ola biladi, deb ishonaman. Chunki yuqorida aytganim Kembrijga intilayotgan o‘n olti yashar qizcha yolg‘iz emas. Ular bugun O‘zbekistonda minglar, millionlar deb aytgim va bunga ishongim keladi. Qolaversa, dunyoviy davlatning aksessuarlari shular bilan adl bunyod bo‘ladi. O‘zbekistonda ijodkorlar, iqtidorli kuchlar yetarli.

“Bugun ma’naviyat boshqa sohalardan o‘n qadam oldinda yurishi kerak, shunda u yangi kuch, yangi harakatga aylanadi”, deydi Prezidentimiz. Shuningdek, yig‘ilishdagi nutqida bolalar adabiyotini rivojlantirishni juda katta masala qilib qo‘ydi. Internet adabiyoti, jahon adabiyotidan badiiy tarjimalar — yaqin kelajagimizning tamal toshlaridir. Madaniyat va ong tarbiyasida bularning o‘rni beqiyos.

Davlatimiz rahbari bizga, yoshlarga mislsiz ufqlar ochyapti. Buning uchun yoshlar ijodkorlik nafasi bilan yashab, o‘zlariga chin ma’nodagi estetik va etik axloqiy, ruhoniy zamin yaratishi va ularni o‘z umr yo‘llari, izlanishlarida mahkam tutishi kerak bo‘ladi. Yoshlarga qiziqishlari shakllanishida izchillik, iroda va matonat kerak. Hech qanday to‘siqlar yo‘q. To‘siqlar fe’l-atvorimizda bo‘lishi mumkin. Dunyo har tomondan o‘zgarib boryaptimi, demak, biz ham o‘zgarishimiz kerak. Dunyo bizni ezgu ishlarga chorlayaptimi, biz ham labbay, deb javob berib chog‘lanishimiz kerak.

Menga kelsak, quduq hali qurigani yo‘q. Tublarida zilol, g‘uborsiz ko‘k suvlar chayqalib, zaminning azal harakatidan mavjlanib turibdi. Bu quduqning suvlarini hayot, deb atayman. Obihayot kabi asarlar dunyoga keltirishni hamon orzu qilaman. Tangri Yer kurrasini koinotlar ichida milliardlab yulduzlar aro makon qilib yaratgan va barcha maxluqlariga rizqu ro‘zni to‘kis ato etgan. Koinotda yaratuvchilik bilan buzg‘unchilik omonsiz kurashda. Ijodkorlar — insoniyat ayni tashnakom bo‘lib turganida unga bir kosada hayot manbaini tutishga chog‘langan odamlar. Olimlar va yozuvchilar doim harakatda. Ojizlik bandaning o‘limi bilan barobar. Hayotning tuzi, asl ma’nosi ularning asarlarida. Olamning ibtidosi — bo‘shliq. Ijodkorlar shu azal bo‘shliqni insoniy ma’no bilan to‘ldiradi va yashashga maroq bag‘ishlaydi. “Doim yangi kun bilan yashash kerak”, deydi XIX asrda yashagan amerikalik adib Ralf Uoldo Emerson. Men kirib kelayotgan har bir yangi kunni sevaman. Prezidentimiz aytmoqchi, mamlakatimiz yangi taraqqiyot davriga qadam qo‘ydi. Yangi Uyg‘onish davri. Men ikki asrning odamiman. Yangi asrda ma’naviyat va ijod safida bo‘lsam, deyman.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Muxtasar TOJIMAMATOVA suhbatlashdi.

E’TIROF

Vaqtning qadriga yetish — olim uchun juda muhim masala. Aslida, bugun butun dunyodagi tendensiya ham shunday. XX asr boshida Albert Eynshteyn, Ervin Shryodinger kabi buyuk olimlar individual tarzda faoliyat ko‘rsatgan. O‘sha vaqtlarda Nobel mukofotini olish uchun qog‘oz, qalam va o‘tkir aqlning o‘zi kifoya edi, xolos. Lekin hozir vaziyat boshqacha. Yer yuzida ilm-fan integratsiyasi kuzatilayotgan bir paytda xalqaro ilmiy kollaboratsiyaga qo‘shilmagan olim olamshumul kashfiyot qilishi amri mahol.

YURTIMIZDA ILM-FAN QADR-QIMMATI YUKSALMOQDA

Bobomurod AHMEDOV, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Mirzo Ulug‘bek nomidagi Astronomiya instituti laboratoriya mudiri, akademik

XXI asrga kelib, axborot texnologiyalari rivojlanishi va o‘zaro axborot almashinuvi sur’ati keskin oshishi, ilm-fan taraqqiyoti muayyan davlat miqyosidagi chegaralarni yo‘qqa chiqardi. Xususan, O‘zbekistonda astronomiya fanini o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar rivojini sohani xalqaro darajaga olib chiqmasdan tasavvur qilish qiyin.

Hozirgi davrda fan globalizatsiyasi juda yuksaldi. Bu zamon olimlari dunyoning qaysi nuqtasida bo‘lmasin, o‘zaro kollaboratsiyada — hamkorlikda yaxshilashga sarflanadi. Salkam 1,6 million AQSH dollari astronomik tadqiqotlar uchun yo‘naltirilgan. Institutimiz binosi qayta ta’mirlandi. Koinotdan yuqori aniqlikdagi tasvirlar olish maqsadida tez orada zamonaviy CCD kamera xarid qilinishi belgilangan. Prezidentimiz xalqaro doiralarda Maydanak observatoriyasiga 4 metrli teleskop o‘rnatilishini ham aytgandi. Bundan tashqari, Jizzaxning So‘fa qishlog‘idagi kuzatuv stansiyasini yangi radioteleskop bilan jihozlash ko‘zda tutilgan.

Ilmiy tadqiqotlar uchun to‘kis sharoit, zamonaviy infratuzilma har bir olimning kayfiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Devorlari nurab borayotgan, tomidan chakka o‘tayotgan xonada o‘tirib ishlash qayerda-yu, zamonaviy kabinetda ilm bilan shug‘ullanish qayerda?! Bunday yangilanishlardan bahramand bo‘lish asnosida shu mamlakatga kerakligingni, qadr-qimmating balandligini his qilasan. Olimdan talab qilinayotgan narsa esa bitta — izlanish va o‘z ustida ishlashni to‘xtatmaslik.

Men uchun akademiklikka saylov davri juda hayajonli o‘tdi. Bunday holatga oxirgi marta yoshligimda, nomzodlik dissertatsiyasini yoqlayotganimda tushgan edim. Akademik etib tayinlanishim ilmiy guruhimizning ko‘p yillik faoliyati samarasidir. Bu guruh kelajagi uchun ham tanlovdan muvaffaqiyatli o‘tishim zarur edi. Prezidentimiz farmoni e’lon qilingach, ro‘yxat boshida o‘zimni ko‘rib, shunday quvondimki, hozir ham shu kayfiyat bilan yuribman.

> **Ilm-fanga qaratilayotgan e’tibor va rag‘batning o‘zi ilmiy kadrlar uchun katta dalda. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasiga davlat budjetidan 32 million AQSH dollari miqdorida mablag‘ ajratildi. Bunaqasi tarixda bo‘lmagan!**

ilmiy faoliyat yuritayotganini anglatadi. Bunday hamkorlik natijasini amaliyotda keng qo‘llayotgan va muhim natijalarga erishayotgan, zamonaviy ilm-fan eng ilg‘or rivojlanayotgan davlatlar qatorida Yevropa mamlakatlari, AQSH, Kanada, Xitoy, Yaponiya kabilarni keltirish mumkin. Astrofizika sohasida bizning ilmiy maktabimiz Yevropa va Osiyo mamlakatlari olimlari bilan faol hamkorlik qilmoqda. Bular orasida Germaniyaning Frankfurt shahridagi Gyote universitetini alohida ta’kidlash o‘rinli. Hamkorlik mahsuli o‘laroq dunyoning eng nufuzli jurnallarida ko‘plab ilmiy maqolalar chop etishga erishdik.

Ilm-fanga qaratilayotgan e’tibor va rag‘batning o‘zi ilmiy kadrlar uchun katta dalda. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasiga davlat budjetidan 32 million AQSH dollari miqdorida mablag‘ ajratildi. Bunaqasi tarixda bo‘lmagan! Mablag‘ning asosiy qismi ilmiy-tadqiqot institutlari moddiy-texnik ta’minotini

Fanlar akademiyasi akademigi bo‘lish menga ulkan mas’uliyat ham yuklaydi. Qutlug‘ dargohning haqiqiy a’zosi sifatida, avvalo, ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni kuchaytirishni maqsad qilib qo‘ydim. Xususan, guruhimiz bilan 2024-yil davomida 100 dan ortiq ilmiy maqolani xalqaro jurnallarda chop ettirishni rejalashtirganmiz. Kelgusida 2 nafar fan doktori va 5 nafar fan nomzodi tayyorlash hamda ularni qo‘llab-quvvatlash ham maqsadlarim qatorida.

Shuningdek, akademik sifatida respublika bo‘ylab ilmiy maktablarni rivojlantirish, hududiy va tarmoq muammolari yechimlarini ishlab chiqishda faol ishtirok etish, xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish va jahonda O‘zbekiston ilm-fani nufuzini yuksaltirish, innovatsion jarayonlarni jadallashtirish borasidagi tizimli islohotlar mazmun-mohiyatini, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini joylarda keng targ‘ib qilish ham rejalarimning asosini tashkil etadi.

MUNOSABAT

TAFAKKUR VA TUYG‘U UYG‘UNLIGI

Botir ERGASHEV,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining o‘rinbosari

Jadid bobolarimiz yuz yil avval ma’naviyat — inson ruhiy muvozanatini tutib turuvchi muhim tayanch ekanini ta’kidlagan edi. Ma’nan yuksalish uchun, avvalo, ma’nan poklanish lozim bo‘ladi. Bu kabi ezgu maqsadlar va uning amaliy ko‘rinishi, shubhasiz, avvaliga inson ruhiyatini tarbiyalasa, keyinchalik u butun jamiyatga o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Bilaks, ma’naviy muvozanatning buzilishi faqat shaxsninggina emas, balki butun jamiyat tanazzuli bilan yakun topishini moziy sardaftaridan tortib, bugungi real hayot kundaliklaridan ham istagancha topish mumkin. Zero, suv va havo inson hayoti uchun qanchalik zarur bo‘lsa, ma’naviyat ham shu qadar ahamiyatli. Ayniqsa, bu jamiyatni harakatga keltiruvchi kuch — yoshlar ma’naviy kamoloti bilan bog‘liq bo‘lsa, dolzarbligi ikki hissa oshib ketadi. Chunki u jamiyatning bugunigina emas, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlatning ertangi kunida ham o‘z ifodasini topadi.

Shukrki, yurtimizda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, aholining ziyoli qatlamini kengaytirish, umuman, ma’rifatli jamiyat qurishdek ulkan mafkura ustuvor. Bu borada allaqachon amaliy ishlar yo‘lga qo‘yilgan, ma’naviyat maskanlarining nuri eng chekka qishlog‘u ovullargacha yetib bormoqda. Inchunin, bugun eng katta ziddiyatlar, kerak bo‘lsa, janglar aynan mafkuralar poligonida kechayotgani, kim, qaysi kuchlar insonlarning ongini, ruhiyatini zabt etsa, o‘sha hududda atom bombasi portlagandan ko‘ra qo‘rqinchliroq zarar, vayronagarchilik kuzatilayotgani hech birimizga yangilik bo‘lmay qoldi. Bunday jamiyatda ma’naviy immunitet hosil qilgan fuqarolargina o‘zligini, nomu nasabini saqlab qola oladi, millatini, iymon-e’tiqodini yo‘qotmaydi. Aksincha bo‘lsa, Vatan tuprog‘ini yovdan to so‘nggi qoni qolguncha himoya qilish o‘rniga uning darvozalarini o‘z qo‘llari bilan lang ochib beradi...

Nihoyasiga yetayotgan 2023-yil yurtimiz ziyolilari, jumladan, adabiyot, ma’naviyat, madaniyat va san’at ahli uchun tom ma’noda go‘zal taassurotlar, zabt etilgan yangi-yangi marralar bilan yakunlanmoqda.

Prezidentimiz Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida masalalar, yechimini kutayotgan dolzarb muammolar xususida ziyolilar bilan dildan, samimiy suhbat qurdi. Eng asosiysi, shu davrada o‘tirgan yuzlab olimu ijodkorlarga bot-bot ko‘zgu tutdi, tom ma’noda uyg‘otdi.

Tabiiyki, xalqimiz, ayniqsa, ziyolilarimiz bu yig‘ilishdan katta yangiliklar, muhim o‘zgarishlar kutgandi. Illo, roppa-rosa besh soat davom etgan anjumanda o‘sha kutilganidan — kutganimizdan ham ziyod tashabbuslar, xushxabarlar aytildi. Ochig‘i, besh soatlik fursat besh daqiqadek tez o‘tib ketganini bir men emas, shu izdihomda bo‘lgan juda ko‘pchilikdan eshitdim. Demak, bu davrada begona yo‘q edi, bu davrada aytilgan har bir so‘z, har bir masala o‘rinli, aynan muhim edi!

Men yurtimizning ulkan bir ma’rifiy tashkiloti — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining yoshlar bilan ishlash bo‘yicha mas’ul vakili sifatida ko‘proq mutaassir bo‘ldim. O‘zim uchun juda ko‘plab vazifalarni, kelgusi yilga mo‘ljallangan rejalarni yozib, tuzib oldim.

Mamlakatimiz rahbari qanday tadbir yoki yig‘ilish bo‘lmasin, kitobxonlik haqida, kitobning ma’naviy ta’siri, jozibasi haqida so‘zlaydi. Bu borada alohida ko‘rik-tanlov tashkil etilib, uning g‘oliblariga avtomobil sovg‘a qilinayotgani bugungidek shiddat bilan tez o‘zgarayotgan dunyoda ahamiyatini taqqoslab bo‘lmaydigan muhim tashabbusdir.

Shu kuni ham Prezidentimiz rahbarlar doimiy mutolaa qilishi, kitobxon bo‘lishi muhimligi to‘g‘risida gapirdi. Kitob o‘qimagan rahbar bilan kitob o‘qigan rahbarning farqi har jabhada yaqqol ko‘zga tashlanishiga ishora qildi.

Kitob nima? Kitob, avvalo, adabiyot! Insonning naqadar olijanob xilqat ekanini, hayot va muhabbat haqidagi haqiqatlarni, timsollarni badiiy o‘zanda ifodalovchi, basharning eng nozik torlarini chertuvchi — yaratilish mohiyatini tadqiq etuvchi, odamzodni uyg‘otuvchi kuch, ta’sir mo‘jizasi! Adabiyotning asosi esa, shubhasiz, millat ma’naviyati bilan bog‘liq. Shuning uchun ham bundan yuz yil avval jadid bobomiz Abdulhamid Cho‘lpon “Adabiyot yashasa, millat yashaydi!”, deya xitob qilgan.

Yoshlar tarbiyasi, kamoloti yoki zavoli singari masalalar faqat bugunning gapi emas. Hamma zamonlaru jamiyatlarda ham bu o‘rganilgan, choralar izlangan, minglab tajribalar qilib ko‘rilgan. Lekin ularning birortasi adabiyot va san’atchalik samara bermagan.

Nega shunday? San’atning, adabiyotning qanday sirli kuchi, qudrati borki, u inson qalbini, shuurini boshqarsa, yo‘naltirsa?! Binobarin, adabiyot so‘zining o‘zagi “odob-axloq”, “tarbiyat” bilan bog‘lanishi barchaga ma’lum. San’at bu — yaratiq, mehnat-mashaqqat, jamiyatning old vakiliga aylanish uchun tinimsiz intilish ekanini ham sizu bizga eslatish shart emas, nazarimda.

Shuning uchun ham yoshlarning qalam tutib, baholi qudrat she’riyatga, nasrga, tarjimaga yoki adabiyotning boshqa yo‘nalishiga oshno bo‘layotganini ko‘rsam, yengil tortaman, ularning boshqa “yo‘llar”ni tanlashi ham mumkin ekanini o‘ylayman. Yo‘q, adabiyotsevar boladan, san’atsevar boladan yomonlik chiqmaydi. Aksincha, ko‘plab yomonliklarning oldini olishi, o‘z do‘stlarini ezgulikka chorlashi mumkinligiga ishonib, xotirjam tortaman.

To‘rt-besh yillik faoliyatim davomida o‘nlab yosh ijodkorlar bilan suhbatlashib, ularning muammolariga quloq tutib, amin bo‘ldimki, yoshlar bizdan oz bo‘lsa-da, e’tibor kutadi. E’tibor bu maqtov yoki moddiy rag‘bat emas, shunchaki, ularning safda borligini tan olish, shashtini so‘ndirmaslik, parvozi uchun imkon qadar osmon yaratish, hech bo‘lmaganda, xalal bermaslik va hokazo...

Daraxtning yosh novdalari quyoshga talpinib o‘sganidek, yoshlar ham o‘zi uchun nur deb bilgan tomonga intilib ulg‘ayadi. Afsuski, bugun o‘zini “ziyo” deb atab, pirovardida yosh avlodni mutlaqo zulmatga olib kirayotgan yovuz kuchlar ham yo‘q emas. Biz e’tibordan chetda qoldirgan, jamiyatdan uzilib qolgan yoshlar aynan o‘shalarning qarmog‘iga osongina ilinib qolayotganiga ham onda-sonda guvoh bo‘layotganimiz bor gap. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari tashabbusi bilan joylarda bugun aynan shunday o‘g‘il-qizlarimizga ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Bu “uyushmagan yoshlar” degan iboraning ommalashuviga xizmat qildi.

Adabiyot kishilari orasida ko‘p aytiladigan bir naql bor — iste’dodlarga turtki kerak, qo‘l-lab-quvvatlov kerak. Bugun ular kabi yoshlar bilan bir jamoamiz, birga ko‘p loyihalarni amalga oshirib kelyapmiz.

Shu ishlardan keyin, demak, yoshlar deganda, ularning xohish-irodasi, fe’l-atvorini ham o‘ylashimiz, adolat tarozisiga solishimiz lozim ekan, degan xulosaga keldim.

Prezidentimiz ma’ruza qilarkan, hududlarda ma’naviyatga panja orasidan, past nazar bilan qarayotgan rahbarlar ham borligini afsus bilan ta’kidlab, bunday yomon munosabat bundan buyon kechirilmasligini alohida ta’kidladi. Zero, ma’naviyatga bepisandlik, avvalo, millatning buguniga, ertasiga bo‘lgan bepisandlikdir. Bu esa davlatga, xalqqa, lavozimga xiyonatning aynan o‘zidir!

Ma’ruzada ma’naviyat bilan bog‘liq masalalar yuzasidan qilingan va qilinajak, erishilgan va natijasi kutilayotgan ishlar raqamlar asosida aniq-ravshan bayon etib berildi. Bu raqamlarda zalvar bor, ko‘ngillarni xushnud etuvchi mujdalar bor.

Yig‘ilishda bevosita ishtirok etgan ijodkor sifatida meni xursand qilgan mavzular xususida soatlab gapirishim mumkin. Ma’naviyat, xususan, adabiyot bevosita ona tilimiz — o‘zbek tili rivoji, unga bo‘lgan e’tiborning ko‘lami bilan chambarchas bog‘liq. Shu ma’noda, kelasi o‘quv yilidan boshlab, milliy sertifikatni qo‘lga kiritgan o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchilari maoshiga qo‘shimcha 50 foiz ustama to‘lanishi, shuningdek, o‘zbek tili bo‘yicha xalqaro olimpiadalar o‘tkazilishi, g‘olib va sovrindorlar pul mukofoti bilan rag‘batlantirilishidan tashqari, nufuzli oliy o‘quv yurtlarining o‘zbek filologiyasi yo‘nalishi bo‘yicha davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinishi haqidagi gaplarni eshitganimda ko‘zimga quvonch va g‘urur yoshlari keldi. Ham yoshlar masalasiga daxldor bir mas’ul xodim, ham ijodkor sifatida, qolaversa, to‘rt farzandning otasi sifatida ko‘nglim tog‘day ko‘tarildi. Yoshlarimizga, o‘zimizning ziyolilarimiz — aziz muallimlarga berilayotgan mana shunday imkoniyatlar, qo‘l-lab-quvvatlov bugun har qachongidan ham zarur ekanini yana bir karra angladim. Bu sa’y-harakatlar tez orada o‘z mevasini beradi, albatta.

Prezidentimiz ma’naviyat borasida jo‘shib, kuyunib ma’ruza qilarkan, bu uchun “iqtisodiy quvvat” zarurligini eslatdi. Bu quvvatning oshishi shoir-yozuvchilarning faolligini, sadoqatini ham taqozo etadi. Agar bunga yoshlarimizni keng jalb etsak, bugundan ularning shuurini Vatan, millat qayg‘usi bilan sug‘orsak, jadidlarimiz orzu qilgan adabiyot yana uyg‘onadi, yana oyoqqa turadi! Buning uchun ularga jamiyatimizning barcha qatlami ilhom berib turishi zarur. Ilhom bu — rag‘bat, ilhom bu — e’tibor, ilhom bu — so‘z va ijod erkinligi!

Shukrki, bu g‘oyalar, bu tashabbuslar aynan shu jihatlarni o‘zida to‘la qamrab olgan. Buni asoslash uchun “Birinchi kitobim” loyihasida har yili o‘nlab yosh qalamkashlarning kitobi minglab nusxada chop etilib, bepul tarqatilayotgani yoki yosh ijodkorlarning an’anaviy Zomin seminarida yuzlab iqtidorli o‘g‘il-qizlar kashf etilayotgani va boshqa imtiyozlar, yoshlar salohiyatini yuzaga chiqaruvchi ajoyib loyihalar haqida ortiqcha to‘xtalib o‘tirmoqchi emasman. Chunki bu jarayonlarni barchamiz o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rib, guvohi bo‘lib kelyapmiz.

Ijodkor bir marta yashaydigan umrini badiiy ijodga bag‘ishlarkan, yozganlari kitob shaklida o‘z o‘quvchilariga yetib borishini istaydi. Biroq kitob chop etishning hammaga ma’lum bo‘lmagan mashaqqatli tomonlari, ko‘zga ko‘rinmas chig‘iriqlari bor. Bugun aksariyat bosmaxonalarni qog‘oz muammosi o‘yga toldirgan. Mamlakatimizda qog‘oz import mahsulot bo‘lgani, unga dunyo miqyosida ehtiyoj ortib borayotgani, bu esa o‘z-o‘zidan kitob tannarxiga ta’sir o‘tkazayotgani bunga sabab bo‘lmoqda.

Yig‘ilishda Prezidentimiz mazkur muammoga ham yaxshigina yechim topib berdi. Ya’ni kelgusida kitobxonlikka e’tiborni yanada oshirish, xalqimizning badiiy adabiyotga bo‘lgan talabini yetarli darajada qondirish maqsadida noshirlik faoliyatini tubdan isloh qilish lozimligini ta’kidladi. Buning uchun yangi yildan boshlab, nashriyot va bosmaxonalar besh yil muddatga barcha turdagi soliqlardan ozod etiladigan bo‘ldi! Ayniqsa, noshirlik bilan shug‘ullanadigan tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratilishi ko‘zda tutilgani quvonchimizni yuz karra oshirdi.

Bunday jamiyatda endi yozish, jo‘shib-toshib, qaynab-yayrab ijod qilish kerak, xolos. O‘z asarlarimiz, faolligimiz, Vatanga, xalqqa sadoqatimiz bilan bu yaxshiliklarga javob berishimiz talab etiladi. Bugun yoshlar eng oldingi safda bo‘lishi, og‘irlikni o‘ziga olib, katta maqsadlar sari dadil intilishiga monelik qiladigan sabab qolmadi.

Muxtasar aytganda, mazkur tarixiy yig‘ilishda ma’naviyat va ma’rifat bilan adabiyot, san’at, madaniyat bir, yakdil sohalar ekanini yana bir karra ilg‘adik. Jamiyatni kamolotga boshlashda, har bir insonning ma’naviy qarashlarini o‘zgartirish, ma’rifiy shuurini yangilashda adabiyot ham, madaniyat ham birdek javobgar ekanini angladik. Binobarin, davlatimiz rahbari aytganidek, biz shunday murakkab yo‘lni tanladik, endi ortga yo‘l yo‘q!

Bobolarimiz boshlab bergan tamaddunlarning navbatdagisi — Uchinchi Uyg‘onishga aynan biz, ziyolilar ortimizdan kelayotgan yoshlar oqimi bilan mustahkam poydevor qo‘yishimiz zarur! Buning uchun bir xalq, bir millat bo‘lib, chinakam yangi O‘zbekistonni barpo etmog‘imizga aslo shubha yo‘q.

BAG‘RIKENGLIK

QARDOSHLARIMIZNING 60 YILLIK QADRDONI

Poytaxtimizning Alisher Navoiy nomidagi kinochilar uyida “O‘zbekiston” telekanalida efirga beriladigan “Didar” (“Zamandas”) teleko‘rsatuvining 60 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan bayram tadbiri o‘zbek va qozoq xalqlari o‘rtasidagi yaxshi qo‘shnichilik, bag‘rikenglik an’analarining amaldagi yana bir ifodasi bo‘ldi.

1963-yilda O‘zbekistonda qozoq tilidagi radiodastur muharriri Yusuf Abdualiyev muharrirligida tashkil etilgan bu teledastur 60 yildirki, mamlakatimizdagi qozoq xonadonlariga fayz, muxlislari qalbiga ko‘tarinkilik ulashib kelyapti.

Yurtimizning turli hududlarida qozoq millatiga mansub 1 milliondan ortiq aholi yashaydi, 370 ta (138 tasi aralash) maktabda qozoq tilida dars beriladi. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida qozoq tili fakulteti bor. 9 ta qozoq madaniy markazi ishlab turibdi.

O‘zbekistonda yashovchi qozoqlarning milliy qadriyati, ona tilini saqlab, targ‘ib qilib kelayotgan ko‘rsatuv oqin, bastakor Sobit Naliboyev tashkil etgan “Oq qanot” qozoq vokal-cholg‘u ansamblini, ko‘plab san’at va madaniyat, umuman, ijod ahlini elga tanitdi. Qoraqalpog‘iston va O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Qudaybergen Allayorov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Mavluda Oynaqulova, opa-singillar Olmagul, Urbigul Suyerboyeva, madaniyat xodimi Alisher Junisov, xonanda Qarliboy Abuov, Asqar Naliboyev va Sharipa Nurbekova shular jumlasidan.

Shuningdek, mazkur ko‘rsatuvda havaskordan tortib, Qozog‘iston xalq artistlari Ermek Serkeboyev, Bibigul To‘legenova, xonanda, bastakor Shamil Abiltoyev kabi professional san’atkorlar ishtirok etgan. Dasturga Olmaotadan ham mehmonlar kelib turgan.

Hozir jurnalistlar Anor Naliboyeva, Zamira Jiyenboyeva, Rustam To‘lenov, rejissyor Fazliddin Najmiddinov bir ijodiy guruh bo‘lib faoliyat yurityapti.

— 1989-yili safimizga jurnalist Usen Umrzoqov qo‘shilib, “Didar” ko‘rsatuvini ochdi, qozoq tilidagi ko‘rsatuv ikkita bo‘ldi, — deydi ko‘rsatuv boshlovchisi Anor Naliboyeva. — Mustaqillikdan so‘ng tojik, koreys, qoraqalpoq, qirg‘iz, tatar tillaridagi ko‘rsatuvlar ham tashkil qilindi. 1991-yildan buyon hamkasbim Zamira Jiyenboyeva bilan birga ishlab kelyapmiz. Ayniqsa, keyingi 5-6 yildagi xizmat safarlarimiz butunlay boshqacha ko‘rinish olganini aytmasam bo‘lmas. “Obod qishloq” dasturi qishloqlarda yashayotgan odamlarning hayot tarzini yaxshilash, shahardagidek sharoitlar yaratishga jiddiy kirishilgan kezlarda qozoqlar eng ko‘p yashaydigan manzillar — Navoiyning Tomdi, Nurota, Uchquduq, Konimex tumanlarida bo‘ldik. Nihoyatda katta kuch safarbar etilib, astoydil sa’y-harakatlar samarasi o‘laroq, Qoraqalpog‘istonning Mo‘ynoq, Qo‘ng‘irot va boshqa hududlari, Jizzaxdagi Manas qishlog‘i g‘oyat go‘zal qiyofa kasb etdi. Avvalgi ko‘rsatuvlarimizda qozoq millati turmush tarzi, yutuqlari haqida gapirgan bo‘lsak, mana shunday ezgu ishlardan so‘ng o‘zga millat vakillariga ham yaratib berilayotgan imkoniyatlarni ko‘rsatishga harakat qildik.

Bayram tadbirida 60-yildan buyon efir yuzini ko‘rib kelayotgan “Zamandas” (“Didar”) ning barcha ijodkorlari o‘zbek elida yashab, emin-erkin ijod qilayotganidan baxtiyorligini ko‘ziyu so‘zida ifoda etdi.

Marosimda xalq diplomatiyasini rivojlantirish va millatlararo totuvlikni mustahkamlashga qo‘shgan katta hissasi uchun “Didar” teledasturi ijodkorlari A.Naliboyeva, Z.Jiyenbayeva va F.Najmiddinovga O‘zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkiloti Xalq diplomatiyasi markazining “Xalq diplomati” ko‘krak nishoni topshirildi.

O‘ylaymizki, bunday e’tibor va e’tirof har ikki mamlakatni bir-biriga yanada yaqinlashtirish, bag‘rikenglik fazilatini baralla tarannum etishga xizmat qiladi.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM
MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1246.
43301 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Muxtasar Tojimamatova
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O‘zA yakuni — 23:25 Topshirildi — 23:50